

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

MILLIY ARMIYAMIZ

NING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

arvar.uz

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 4-aprel  
№14 (3128)



*Yurtim o'g'loni,  
noming tillarda*

IJTIMOIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv\_vatanparvar\_uz



vatanparvar-bt@umail.uz



facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi

instagram.com/mudofaavazirligi

youtube.com/c/uzarmiya

Do'stlik timsoli

# CHEGARALAR

## BIRODARLIK CHIZIQLARI, YANGI IMKONIYATLAR, BUNYODKORLIK VA HAMKORLIK MAKONIDIR

**So'nggi yillarda mamlakatimiz xalqaro maydonda o'z nufuzi va obro'-e'tiboriga ega bo'lib, jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda.**



Prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan ochiq, pragmatik, faol tashqi siyosat, chegaradosh mamlakatlar bilan o'zaro samimiy va do'stona munosabatlarning yo'lga qo'yilishi natijasida, hukumatlararo komissiya vakillarining sa'y-harakatlari bilan davlat chegarasining delimitatsiyasi va demarkatsiya ishlari jadal sur'atlarda davom ettirilishi, sarhadlarimizni qo'riqlash va himoya qilish samaradorligini yanada oshirishga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridan harakatlanayotgan

shaxslarga qulayliklar yaratish, shaxs va transport vositalarini o'tkazish borasidagi imkoniyatlarni yanada oshirish maqsadida bir qator o'tkazish punktlari yangidan barpo etilib, ko'plari qayta ta'mirlandi va rekonstruksiya qilindi. Bir necha o'tkazish punktlarining maqomi "xalqaro" toifaga o'tkazilib, kechayu kunduz faoliyat yuritish tartibi belgilandi.

Shu asosda, chegaradosh davlatlar bilan yaqin qo'shnichilik aloqlari va do'stona munosabatlar yangi bosqichga chiqib, tobora mustahkamlanib borayotgani – tili,

urf-odatlari, an'ana va qadriyatlari bir-biriga yaqin bo'lgan, ko'p yillardan buyon qarindoshlik rishtalari bilan o'zaro chambarchas bog'langan qardosh xalqlarning minnatdorlik kayfiyatlarida ham aks etmoqda.

Xususan, joriy yilning 31-mart kuni Xo'jand shahrida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'izistonning mustaqil rivojlanishi tarixida ilk bor uch mamlakat rahbarlari tomonidan davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma imzolanib, abadiy do'stlik to'g'risidagi Xo'jand deklaratsiyasining qabul qilinishi ham mamlakatlarimiz do'stona aloqlari tarixida yangi sahifa ochdi.

irodasi, hamkorlik va o'zaro anglashuvga intilishi tufayli erishildi. Bu esa, o'z navbatida, hatto eng murakkab masalalarni ham ochiq muloqot, hurmat va o'zaro ishonch orgali samarali hal etish mumkinligining yorqin ifodasıdir.

Mazkur uchrashuv doirasida, O'zbekiston – Tojikiston – Qirg'iziston chegaralari tutashgan kenglikda "Do'stlik timsoli" stelasining tantanali ochilish marosimi ham katta bayramga aylanib ketdi. O'zaro birodarlik, yaqin qo'shnichilik va hamjihatlik ifodasi sifatida barpo etilgan mazkur stela atrofida uch qardosh xalq vakillari jam bo'lib, shunday yorug'



Endilikda, chegara masalalari hal etilmagani sababli ko'p yillar davomida keskinlik hamda nizolar kelib chiqayotgan hududlardagi vaziyat tubdan o'zgarishiga va mazkur yo'nalishdagi chegara xizmati faoliyati soddalashtirilishiga erishilib, sarhadlarimiz posbonlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan holda, butun mintaqaga barqarorligi va har tomonlama ravnaqi uchun yanada yangi imkoniyatlar eshigi ochiladi.

Albatta, bunday kelishuvlarga Markaziy Osyo davlatlari yetakchilarining kuchli siyosiy

va saodatli kunlarga shukronalik keltirdilar.

Steladagi bir ildizdan ungan uch daraxt misol ko'kka bo'y cho'zgan novdalar, mustaqil uch davlatning ramzi bo'lib, ularni do'stlik belbog'i bog'lab turibdi. Uch davlat rahbarlarining tinchlik, qardoshlik va nurli kelajak yo'lidagi qaroridan darak beruvchi ushbu yodgorlik, kelajak avlodlar uchun ham o'zaro hamkorlik ko'priklarini mustahkamlovchi abadiy meros bo'lib xizmat qiladi.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



## Korrupsiya – jamiyat tanasidagi saraton

“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a’zolari, ta’bir joiz bo’lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o’z oldimizga qo’yan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o’tishimiz kerak”.

**Shavkat MIRZIYOYEV,  
O’zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# OGOLLIK QO’NG’IROG’I

Ma’lumki, 2018-yil 13-yanvarda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni Shavkat Mirziyoyev mamlakat Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 26 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga bag’ishlangan bayram tabrigida: “Mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta’minalash borasida joylardagi davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish bo’yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko’tarildi. Har bir hududda harbiy-ma’muriy sektorlar tashkil etildi, ularga bevosita rahbarlik qilish mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari zimmasiga yuklandi”.

“Unib-o’sib kelayotgan yosh avlod qalbida mustahkam hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas’uliyat tuyg’usini shakllantirish maqsadida vatanparvarlik tarbiysi sohasida mohiyat e’tiboriga ko’ra, noyob tizim yaratilib, uning doirasiga mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari qamrab olindi”, deya ta’kidlagan edi.

O’sha yillari xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfining tobora ortib borayotgani, dunyoning ayrim mintaqalarida qurollor to’qnashuvlar davom etayotgani hamda tahlikali vaziyat saqlanib qolayotgani O’zbekistonning barqaror rivojlanishiga bir mucha bo’lsa-da tahdid sola boshlashi mumkin edi. Shu munosabat bilan Qurolli Kuchlarni yanada imkon qadar rivojlanirish, uning jangovar shayligi va tayyorgarligi qobiliyatini oshirish doimo e’tiborda bo’ldi. Bu davlatning eng muhim vazifalaridan bo’lib, amalga oshirishda Qurolli Kuchlar, harbiy okruglar qo’mondonligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlaringin faol pozitsiyasiga tayanish o’ta dolzarb edi.

So’nggi sakkiz yilda barchamiz Vatan, xalq va armiya bir-biriga jips va mushtarak ekanini teran his qildik. Biroz bo’lsa ham yangi tuzilma – harbiy-ma’muriy sektorlar hududlarda kushandaga aylangan korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali faoliyatni qarSATdi.

Tub islohotlar tufayli “**Xalq va armiya – bir tan-u bir jon!**” degan olyjanob tamoyilga asoslangan amaliy harakat barcha bo’g’indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar, xotin-qizlar, nuroniyalar tashkilotlari, ta’lim-tarbiya muassasalarini faoliyati hamda keng jamoatchilik hayotini qamrab oldi. Muqaddas Vatan himoyasi barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharafi burchimizga aylanib borayotganidan dalolat berdi.

Davlatimizning harbiy-siyosiy qat’iy pozitsiyasini ifoda etadigan yangi Mudofaa doktrinasi ishlab chiqildi. Tezkorlik bilan amalga oshirilayotgan zalvorli islohotlar natijasi o’laroq milliy armiyamiz puxta va ixcham, har qanday tahdidlarga zarur bo’lganda munosib zarba berishga qodir kuch-qudratga aylandi. Darhaqiqat, bu borada har bir harbiy xizmatchining professional bilim va malakasi, aqliy salohiyati, axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish o’ta muhim ahamiyatga egadir.

Aytish joizki, Qurolli Kuchlar qo’shinlari shaxsiy tarkib o’tasida **milliy o’zlikni anglash va jangovar axloqiy ruh** hamda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini

kuchaytirish, ularning intellektual salohiyatini yuksaltirish – shu yillarda davomida doim e’tiborda bo’ldi. O’rni kelganda qayd qilish lozim, askar va kursantlar uchun Vatanga qasamyod qabul qilishdan oldin O’zbekiston tarixi fani va “Temur tuzuklari” kitobi bo’yicha sinov o’tkazish tartibi yo’lga qo’yildi. Hozir esa bu an’ana yangi rakursda muttasil davom etmoqda.

**Prezident  
Shavkat Mirziyoyev  
joriy yil 5-martda  
Korrupsiyaga qarshi  
kurashish milliy  
kengashi yig’ili shida  
nutq so’zlab: bu  
korrupsiya islohotlar  
yo’lidagi eng katta  
to’siq va g’ovdir.  
So’nggi yillarda  
bu illatga qarshi  
kurashish bo’yicha  
qonunlar qabul qilinib,  
yangi tizim yaratildi.  
Parlament palatalarida  
mas’ul qo’mitalar,  
Korrupsiyaga qarshi  
kurashish milliy  
kengashi hamda  
agentlik tashkil  
qilindi”, deya  
ta’kidladi.**

Eng muhimi, jamiyatda korrupsiya muammosini jamoatchilik muhokamasiga olib chiqadigan ochiq tizim, ochiq muhit yaratildi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o’mi va ta’siri ortib bormoqda. Shu bois Prezidentimizning “Barchamiz yaxshi tushunamiz, korrupsiyaga qarshi kurash jarayoni hech qachon aniq muddat bilan cheklanmaydi. Ushbu masalada faqat davlatning sa’y-harakati bilan kutilgan

natijaga erishib bo’lmaydi. Bu – butun jamiyatimizning ishi”, degan fikrlari har birimiz uchun ogohlilik qo’ng’irog’i bo’lib xizmat qilishi kerak.

Raqamlarga e’tibor qaratsak, bиргина 2024-yilda korrupsiya sohasida 5 716 ta jinoyat sodir qilinib, 6 898 shaxs javobgarlikka tortilganini ko’ramiz. Achinarli, mazkur jinoyatarning eng ko’pi maktabgacha va maktab ta’limi (11,6 foiz), sog’liqni saqlash (9,2 foiz) hamda kambag’allikni qisqartirish va bandlik tizimida (7,8 foiz) sodir qilingan. Korrupsion jinoyatlar oqibatida davlat manfaatiga 12,4 trillion so’m zarar yetkazilgan. Shundan bor- yo’g’i 4,2 trillion so’mi (34 foiz) undirilgan. Ya’ni jinoyatlar turi bo’yicha tahsil qilinsa, 1 925 tasi o’zlashtirish, 1 080 tasi firibgarlik, 412 tasi mansab vakolatini suiiste’mol qilish, 1 414 tasi mansab soxtakorligi, 201 tasi pora olish, 575 tasi pora berish, 109 tasi boshqa jinoyatlar ekanı ko’rinadi.

Iqtidori olim, yuridik fanlari doktori, professor Mirzayusuf Rustamboyev ta’kidiga ko’ra: Yangi O’zbekistonda kelajak uchun kafolatli Vatan qurmoqchi ekanmiz, korrupsiyani Vatanga xiyonatga, korruptionerlarni esa eng ashaddiy sotqinga tenglashtirish vaqtga keldi. Bu haqiqiy vijdon ishi kundalik hayot mazmuni bo’lmog’i shart!

Darhaqiqat, sakiz yil mobaynida milliy iqtisodimiz 2 karra o’sdi, aholi jon boshiga to’g’ri keladigan daromad 3 ming dollarga yetdi. Maktabgacha ta’lim qamrovi: 74 foizdan va oliy ta’limda esa, 39 foizdan oshgani hech shubhasiz, tarixiy olamshumul yutuqdir.

Eng og’riqli masala kambag’allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylandi, keyingi yillarda 23 foizdan 8,9 foizga tushdi. Xalq xo’jaligining 32 ta yo’nalishida yangi yondashuvlar joriy etildi.

O’zbekiston Respublikasida gender tenglikli erishish strategiyasi qabul qilindi. Parlamentda ayollar ulushi 32 foizdan 38 foizga o’sdi. Yangi saylangan mahalliy kengash deputatlarining 32,6 foizi xotin-qizlarni tashkil etib, ilgarigi chaqiriqdagidan 9 foiz ko’pdir.

Avvallari 2017-yilgacha korrupsiya haqida ochiq gapirish mumkin emasdi. Faqat davlatimiz milliy siyosiy yetakchingin keng ko’lamli irodasi tufayli “yopiq eshilkar” ochildi. Inson omili – uning oltin kapitali har qanday byurokratiyaga chek qo’ydi. Aytish joiz bo’lsa, o’ta muhim 30 ga yaqin soha ochiqlandi: FHDYO, pensiya muammosi, “mahallabay va fuqarobay”, onlaysiz tizimlari faolashdi. Bir misol keltiraman. Aholining yo’llarda xavfsizligini ta’minalash borasida ko’plab huquqiy adolat ishlari amalga oshirildi: yo’l harakati xavfsizligi inspektordagi bodikamera bilan xizmat o’tayotgani, avtoraqamlar auksionda solitayotgani, “qo’l radari” va qog’oz bayonnomma tuzish mutlaqo bekor qilingani uchun mazkur sohada korrupsiya yo’qoldi hisob.

Sakkiz yil avval hududlarni kompleks rivojlanirish bo’yicha harbiy-ma’muriy sektorlar faoliyati yo’lga qo’ylgan edi. Bu tizim yillarda yig’ili shida qabul qilgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilib, vaziyatni o’nglash uchun barcha kuchlarni safarbar etishga ko’maklashdi, hududlar salohiyati qonun ustunligi borasida bir necha karraga oshdi. Lekin keyingi paytda prokuratura, ichki ishlar va soliq rahbarlari sektor faoliyatini bahona qilib, o’z sohasidagi ishlarni susaytirib yuborganlari Prezident tomonidan tanqid ostiga olindi. Prezident

aniq taklif kiritdi: endilikda prokuror, ichki ishlar va soliq rahbarlari sektorlar faoliyati bilan shug’ullanmasligi belgilandi.

Davlat xaridlarida korrupsiyaning oldini olish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Shu maqsadda ekspert komissiyasi tuziladi. Ilg’or ta’jriba asosida davlat xaridlarida tovarlarning o’rtacha bozor narxlar ko’rinib turadigan elektron platforma yaratiladi. Bunda davlat xaridlarida sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi o’rtacha bozor narxidan ko’pi bilan 20 foizdan oshmasligi shart. Ushbu talabni buzganlik uchun qonun bilan javobgarlik va jarimalar joriy qilinadi.

Ochig’ini aytganda, huquq-tartibot idoralari, asosan korrupsiyani aniqlash va jazolash bilan ishlab, korrupsiyaviy omillarni tag-tomiri bilan yo’qtadigan preventiv choralar e’tiborsiz qolayotgani qayd etildi. Ayni paytda hududiy kengashlar ularga barham berish uchun qonunchilikni o’zgartirish, jazo muqarrarligini ta’minalash bo’yicha Milliy kengashga taklif kiritadi.

Shu bois Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ish uslubi mutlaqo o’zgartirilishi belgilandi. Buning uchun ta’jriba tariqasida 5 ta – Sog’liqni saqlash, Qurilish va Suv xo’jaligi vazirlarli, “O’zbekneftgaz” hamda “O’zsuvta’mnot” aksionerlik jamiyatlar komplayens nazorati agentlikka o’tkaziladi. Ya’ni tumanlar darajasiga tushib, maishiy va tizimli korrupsiya omillarini chuqur o’rganadi. Tahlillar asosida aniq choralarini ishlab chiqib, Milliy kengashga taqdim etadi.

Korrupsiyaviy jinoyatlarning 75 foizi tumanlar va mahallalarda maishiy korrupsiya shaklida sodir etilyapti. Darvoqe, Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlari tarkibi to’liq yangilanadi. Ularga viloyat xalq deputatlari kengashi raislari bosh bo’ladi.

“Hammamiz yagona kuch bo’lib harakat qilsak, albatta katta ijobji samaraga erishamiz. Shu bois mahalla faollari, nuroniyalar, ziyoililar, yozuvchi va shoirlar, san’at va madaniyat xodimlari, tadbirkorlar, taniqli shaxslar, rahbarlar, deputat va senatorlar – umuman butun jamoatchilik birlashib, korrupsiyaga “jamiyat tanasidagi saraton” sifatida qaralishi kerak”, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Umuman, ilk marotaba bunday tarza yig’ili shida korrupsiyaga qarshi kuchli siyosiy irodani namoyon etdi. Davlatimiz rahbari 55 ta aniq maqsadga yo’naltirilgan tashabbuslarni ilgari surdi. Ular doirasida 5 ta qonun, 12 ta farmon va qarorlar ishlab chiqiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament, Milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyatini institutlarining roli oshiriladi.

Shuning uchun bugun nafaqat operativ-qidiruv, balki “preventiv” usullar, ya’ni ko’proq korrupsiyaning oldini olishga e’tibor kuchaytiriladi. To’g’ri-da, bunday illat vujudga kelmasidan oldin uning oldini olsakkina, kutiladigan ogilona samara bo’ladi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik lavozimiga kirishganidan so’ng birinchi imzolagani “**Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida**”gi qonun edi. Davlatimiz milliy-siyosiy yetakchisi ilgari surgan takliflar xalqimiz, ayniqsa yoshlarga katta mas’uliyat yuklaydi. Uni sharaf bilan bajarish – olyi qadriyat, istiqbol demak.

**Karim NORMATOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
professori**

Ko'rgazmali mashg'ulot

## MAS'ULIYATLI PALLA

Kuz-qish mavsumida ko'rsatilgan texnik xizmatlardan so'ng jangovar shay va soz holatda saqlangan harbiy texnika va qurol-aslahalarni endilikda o'lkamizning Shimoli-g'arbiy hududlarida kuzatiladigan yozning quruq va issiq havosiga tayyorlash o'ta mas'uliyatl vazifa hisoblanadi.



Kelayotgan yoz mavsumida texnika va qurol-aslahalarni jangovar shay holatda saqlanishini ta'minlash ishlari boshlanishidan oldin harbiy okrug harbiy qism va muassasalarining komandirlari hamda texnikalarga javobgar shaxslari ishtirokida ko'rgazmali mashg'ulot tashkil etildi.

Mazkur kompleks tadbirlar harbiy texnika va qurol-aslahalarni yuqori jangovar shaylik darajasida ushlab turish hamda ob-havoning issiq, namlik past bo'lgan cho'l sharoitini foydalanishga hozirlash uchun o'tkaziladi. Bunday tadbirlar texnika va qurol-aslahalarning

yaroqlilik muddatini oshirib, ularning soz holatda bo'lishini ta'minlaydi.

Qo'shnarda yuksak jangovar shaylikni ta'minlash, texnika va qurol-aslahalarni doim soz va shay holatda saqlash maqsadida o'tkazilayotgan mazkur tadbirlarda reglament bo'yicha ishlarni to'g'ri tashkil etish, texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda xavfsizlik qoidalariqa amal qilish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazildi.

Ko'rgazmali mashg'ulotni tashkil etish uchun harbiy qismning jangovar va harbiy texnikalarni saqlash parkida 10 ta o'quv joyi va 20 ta o'quv nuqtasi yoyildi.

U yerda jangovar mashina, tank, zirqli transportyor, zenit-artilleriya qurilmalari, maxsus texnika, qurol-yarog' va boshqa texnikalarni yozgi sharoitda foydalanish rejimiga o'tkazish ishlarning mohiyati, texnika xavfsizligi qoidalariqa rioya etish, tashkil etilgan postlarda samarali va sifatli ish olib borish, qurol-yarog' va texnikani ob-havoning harorati yuqori sharoitlarida ishlatalish qoidalari, jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar tomonidan yo'rqnomalarni berildi. Texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'rgazmali tarzda ishlar namoyish etildi.

Mazkur tadbirlarni bajarishda texnologik xaritalarga ko'ra, harbiy qismlardagi texnikalarda sovitish suyuqliklari almashtiriladi, har bir jangovar mashina agregat va tugunlari tekshiriladi, filtrlarni tozalash va almashtirish ishlari o'tkaziladi, yoqlig'i-moylash ashyolari yangisiga o'zgartiriladi, elektr va aloqa jihozlarining sozligi nazoratdan o'tadi.

**Podpolkovnik  
Timur NARZIYEV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**

### Jangovar shaylik

## YOZGI MAVSUMGA TAYYORGARLIK

"Termiz" umumqo'shin dala-o'quv maydonida qurol-yarog' va harbiy texnikalarni yozgi mavsumda foydalanish rejimiga o'tkazish bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulot tashkil etildi.



Unda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi qo'mondonlik ma'sul ofitserlari, Termiz, Kakaydi va Xayrobod garnizonlarida joylashgan harbiy qism va muassasalar texnik ta'minot ofitser hamda serjantlari ishtirok etdi.

Tadbirda harbiy texnika va qurol-aslahalarning jangovar shayligini ta'minlash, ularni soz holatda saqlashda ko'rsatilayotgan texnik xizmatlarning

ahamiyati xususida qimmatli ma'lumotlar berildi. Har bir komandir, harbiy xizmatchi o'ziga biriktirilgan qurol-yarog' va harbiy texnikanining soz va shayligi uchun mas'ul ekani eslatildi.

Ko'rgazmali mashg'ulotni tashkil etish uchun harbiy qismning jangovar va harbiy texnikalarni saqlash parkida 27 tadan ziyyod o'quv nuqtasi tashkil etildi. U yerda jangovar mashina, tank,

zirqli transportyor, zenit-artilleriya qurilmalari, maxsus texnika, qurol-yarog' va boshqa texnikalarni yozgi sharoitda foydalanish rejimiga o'tkazish ishlarning mohiyati, texnika xavfsizligi qoidalariqa rioya etish, tashkil etilgan postlarda samarali va sifatli ish olib borish, qurol-yarog' va texnikani ob-havoning harorati yuqori sharoitlarida ishlatalish qoidalari, shu

bilan birga jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha mutaxassislar tomonidan yo'rqnomalarni berildi. Texnikalarga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'rgazmali ishlar namoyish etildi.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV  
Termiz garnizoni**

Ilk ko'nikma



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugning "Termiz" umumqo'shin dala-o'quv maydonida Surxondaryo viloyatidagi umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari jangovar quroldan amalda o'q otish mashqlarini bajardi.



## O'QUVCHI-YOSHLAR AMALIY O'Q OTISH MASHG'ULOTIDA

Tadbir avvalida harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-major Farhodjon Shermatov yoshlari bilan uchrashib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xavfsizlik kengashi kengaytirilgan yig'ilishida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni hayotga keng tatbiq etish bo'yicha belgilab bergan vazifalari haqida so'zladi. Bugungi kunda milliy armiyamizda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlар to'g'risida ma'lumotlar berdi.

Shu kuni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan olgan nazariy bilimlarini amalda mustahkamlash maqsadida dala-o'quv maydoniga kelgan 500 dan ortiq o'quvchi-yoshga, birinchi navbatda, jangovar qurollar bilan muomala qilish, ulardan foydalanishda texnika xavfsizlik qoidalariiga rioya qilish bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etildi.

Shuningdek, avtomat o'qdonini patron bilan



o'qlash, aniq mo'ljalga olishni o'rganish, avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish kabi mashqlar yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan bajarildi.

Shundan so'ng yoshlar birinchi marotaba quroldan amaliy o'q otish mashqlarini bajardi. Jumladan, har bir o'quvchi 100 metr uzoqlikda turgan nishonga qarata o'q uzib, o'zlarining bu boradagi bilim va mahoratlarini mustahkamladi.

O'q otish mashg'ulotlari davomida jangovar texnika va o'qotar qurol namunalari ko'rgazmasi ham tashkil etildi. Haqiqiy qurollar bilan tanishuv, ularning jangovar imkoniyatlari va texnik tasnifi haqidagi ma'lumotlar yoshlarning e'tiboridan chetda qolmadи.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV**  
Termiz garnizoni

# O'ZBEKİSTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SOHASIDA DAVLAT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi yig'ilishida ishtirok etdi. Yig'ilishda yurtimizda korrupsiyadan xoli muhit yaratish bo'yicha qilingan ishlarga baho berilib, kelgusi vazifalar belgilab olindi.



Yig'ilishda Prezident korrupsiya islohotlar yo'lidagi jiddiy to'siq ekanini ta'kidlab, korrupsiyaga olib keladigan omillarni bartaraf etishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini qayd etdi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining ish usulini o'zgartirish va uning korrupsiyaviy holatlarning oldini olishdagi rolini kuchaytirish bo'yicha qaror qabul qilindi.

Bundan tashqari, davlat organlarida oshkorlik va hisobdorlikni oshirish, shuningdek davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini joriy etish masalalari muhokama qilindi. Ushbu chora-tadbirlar fuqarolarning sud tizimi va davlat institutlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga qaratilgan.

Prezident rahbarligida o'tkazilgan mazkur yig'ilish O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashish va sud tizimida adolatni ta'minlash borasidagi izchil davlat siyosatini amalga oshirishga sodiqligini tasdiqlaydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini bosqichma-bosqich mustahkamlab, xalqaro tashabbuslarga qo'shilib, milliy mexanizmlarni takomillashtirib bormoqda. Bu yo'nalihsidagi ilk muhim qadam mamlakatning xalqaro muhim bitimlarga qo'shilishi bo'ldi: **Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha BMT konvensiyasi (2000-y.)** va **BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasi (2003-y.)**. Ushbu hujjalalar korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va bu sohadagi huquqiy tartibga solishni kuchaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlari ishlarb chiqish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qildi.

Bu yo'ladi yana bir muhim bosqich - 2010-yilda O'zbekistonning Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OESR) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Istanbul harakatlar rejasiga qo'shilishi bo'ldi. Ushbu mexanizmda ishtirok

etish mamlakatga korrupsiyaga qarshi islohotlarni monitoring qilishning xalqaro tizimiga integratsiyalash imkonini berdi, shuningdek mustaqil baholashning besh bosqichidan o'tish orqali muammoli jihatlarni aniqlash va ilg'or tajribalarni joriy etish imkoniyatini yaratdi.

2017-yilda qabul qilingan **"Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"**gi qonun korrupsiyaga qarshi siyosatga yangi sur'at baxsh etdi. Ushbu normativ-huquqiy hujjat korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilab beruvchi fundamental hujjatga aylandi. Qonun doirasida Respublikalararo idoralararo komissiya tashkil etildi va keyinchalik u Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashga aylantirildi. Ushbu organ faqat davlat idoralari vakillarini emas, balki fuqarolik jamiyatni, ilmiy doiralari va boshqa mustaqil tuzilmalar ekspertlarini ham birlashtirdi. Bunday ko'p sektorli yondashuv jamoatchilik nazorati mexanizmlarini kengaytirish, davlat organlari faoliyatining shaffofligini oshirish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash imkonini berdi.

Bugungi kunda O'zbekiston korrupsiyaga qarshi strategiyani yanada rivojlantirib, jarayonlarni raqamlashtirish, qonunchilikni takomillashtirish va fuqarolik nazorati mexanizmlarini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu chora-tadbirlar samarali, shaffof va hisobdor boshqaruv tizimini yaratishga qaratilgan bo'lib, jahon standartlariga mos keladi.

Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar orasida korruption jinoyatlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha ixtisoslashgan tuzilmalarni tashkil etish muhim o'r'in tutadi. Jumladan, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va boshqa vakolatli organlarning roli kuchaytirildi. 2021-yilda Parlamentda korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo'yicha qo'mitalar tuzildi, bu esa parlament nazoratini kuchaytirish imkonini berdi.

Sud tizimidagi korrupsiya huquq-tartibot sohasidagi eng murakkab va nozik muammolardan biri hisoblanadi. Jamiyatning sud tizimiga bo'lgan ishonchi qabul qilingan qarorlarning adolatliligi, asosliligi va xolisligiga bog'liq. O'zbekistonda sud faoliyatiga zamonaliv axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha choralar ko'rildi, bu esa qaror qabul qilishda inson omilini minimallashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2021-yildan boshlab ishlar sudyalar o'rtasida avtomatik tarza taqsimlanadigan tizim joriy etildi, bu esa ayrim sudyalarga ta'sir o'tkazish orqali korrupsiyaga yo'l qo'yish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Shuningdek, sud tizimida kadr siyosati bo'yicha keng ko'lamli islohotlar boshlandi. Sudya lavozimiga nomzodlarga qo'yiladigan yangi talablar joriy etildi, jumladan majburiy psixologik test sinovlari talab qilinmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadi, bunday yondashuv kadrlarni tanlash bosqichida korrupsiya xavflarini aniqlash imkonini beradi. Germaniya, Portugaliya, Avstriya va boshqa mamlakatlarda nomzodlar stressga chidamlilik va etikaga rioya qilish

qobiliyati bo'yicha sinovdan o'tishlari kerak. Qozog'iston va Moldova kabi davlatlarda esa nomzodlar poligraf tekshiruvidan o'tishi mumkin.

O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi milliy strategiyasi sud-huquq tizimidan tashqaridagi boshqa davlat institutlari, iqtisodiyot va jamiyat hayotini qamrab olgan keng qamrovli islohotlarga yo'naltirilmoxda. **2025-yil 5-mart kuni bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengash yig'ilishida Prezident Shavkat Mirziyoyev korrupsiyaga qarshi kurashishni davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida belgilab, 55 ta tashabbusni ilgari surdi.**

Jumladan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tashkilotlar va sheriklar bilan hamkorlikni kuchaytirish, GRECO va BMT tavsiyalariga mos qonunchilikni ishlarb chiqish, korruption jinoyatlarni mustaqil tekshirish mexanizmlarini yaratish va korrupsiyani fosh etuvchilarini himoya qilish tizimini rivojlantirish kabi yo'nalihsidagi alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, davlat xizmatlari, sog'liqni saqlash, ta'lim, huquq-tartibot organlari va davlat kompaniyalari korrupsiyaga qarshi qattiq nazoratga olinadi. Byudjet xarakatlarini monitoring qilish, elektron tenderlar va shartnomalarni joriy etish, infratuzilma loyhalarini audit qilish orqali shaffoflikni ta'minlash rejalashtirilgan.

Prezident tomonidan taklif qilingan chora-tadbirlar shaffof va hisobdor davlat boshqaruvini yaratishga, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga va O'zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Sh. DO'SALIYEV,**  
**O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyasi.**  
**D. TURABEKOV,**  
**suda katta yordamchisi**



Iqlim tez o'zgaryapti. Bir qarasangiz, havo keskin sovib ketadi, yana bir qarasangiz, qishda quyosh shunaqangi qizdiradiki, hatto daraxtlar kurtak ochaman, deb qoladi. Xo'sh, bu masala e'tibor qaratishga arziydimi? Shunchaki, beparvo yashayversak, nimani yutqazamiz? Yutqazadigan narsamiz bormi o'zi?

Menden so'rasangiz, albatta bor, degan bo'lardim. Chunki inson tabiat bilan, tabiiylik bilan barhayot. Demak, boshdan do'ppini olib, jiddiy o'ylash fursati yetdi. Aks holda, bizni kutayotgan muammolar ko'lami ortadi. Bu haqda o'ylashning o'zi kishini sarosimaga soladi.

Xo'sh, bu borada mamlakatimizda qanday choralar ko'rilmoxda? Maqolada ana shu savolga javob izlab ko'ramiz.

Keling, dastlab “Yashil makon” umummilliyl loyihasining afzalliklari xususida gaplashsak. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ushbu tadbirlar, avvalo, aholi turmush sharoitini yaxshilash, ekologiyani muhofaza qilish va barqaror rivojlantirishga qaratilgani bilan ham ahamiyatlari ekanini ko'ramiz.

Bu loyiha, ayniqsa urbanizatsiya, aholining tez o'sishi va texnogen bosimlari tufayli ekologiyani saqlashning muhimligini yanada ochib beradi.

#### LOYIHANING EKOLOGIK AFZALLIKLARI

“Yashil makon” loyihasining asosiy maqsadi – shahar va qishloq hududlarida yashil hududlarni ko'paytirish, soqliki saqlash, tabiiylikni oshirishdan iborat.

Qolaversa, loyiha doirasida manzarali va mevali daraxtlar hududlarning iqlimiga mos, tuproqning meliorativ holatidan kelib

chiqib ekilayotgani esa tez orada ana shu joylarda bog'-u rog'lar barpo bo'lishidan dalolat bermoqda. Yashil hududlar esa havoning tozaligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Daraxtlar uglerod dioksidini so'rib olib, kislorod tarqatishga xizmat qiladi. Bu esa barchamiz uchun hayot demakdir.

#### TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Yana bir gap: bilasiz, yashil maydonlar, ayniqsa suv resurslarini tejash va asrashda muhim rol o'ynaydi, ko'chkilar yuzaga kelishining oldini oladi.

#### IKKILAMCHI IQTISODIY VA IJTIMOIY FOYDA

“Yashil makon” loyihasi, nafaqat ekologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham muhimdir. Ayni tadbirlar doirasida yangi ish o'rinnari yaratilishi va yangi yo'nalishlar rivojlanishiga xizmat qilayotgani ham bor gap.

#### TURIZMNI RIVOJLANTIRISH

Bugun har qaysi mamlakat, ayniqsa turizm sohasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Nega? Chunki bu qo'shimcha daromad hisoblanadi. Sayohatchilar oqimi qancha ko'p bo'lsa, demak, aholi uchun ham, davlat uchun ham foydali hisoblanadi. Biz yashab turgan zamin esa azaldan

o'zga xalq vakillarining doimiy diqqat markazida bo'lgan. Chunki otabobolarimizdan meros tuprog'imiz betakror manzaralari, tabiiy va o'ziga xos go'zalliklari, asosiysi havoning sofligi bilan nom taratgan.

Shunday ekan, yashil hududlarning ko'paytirilishi turizmga ham yordam beradi. Ekoturizmning rivojlanishi nafaqat aholini ekologik madaniyatga o'rgatadi, balki turistlarni jalb etish va mamlakat iqtisodiyotiga ham foyda keltiradi. Bugun ana shu maqsadlar tomon dadil qadam tashlanmoqda.

#### SOG'LOM HAYOT TARZI

Yashil hududlar aholiga dam olish, sport bilan shug'ullanish va tabiat bilan uyg'unlashish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, yurtdoshlarimizni jismongan sog'lom bo'lishini ta'minlaydi.

#### ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Yashil maydonlarda quyosh quvvatidan samarali foydalanish imkoniyati ham mavjud. Bu esa barqaror rivojlanishga olib keladi.

#### IJTIMOIY SALOMATLIKKA TA'SIRI

Ta'kidlash kerakki, yashil hududlar, ayniqsa aholi salomatligini yaxshilashda muhim

ahamiyatga ega. Boisi havo toza bo'lsa, tana barqaror bo'ladi. Yashil maydonlar esa havo va atmosferadagi zararli gazlarni so'rib, havoni toza saqlaydi. Bu esa respirator kasalliklarni kamaytiradi va odamlar uchun yaxshi turmush sharoitini yaratadi. Shuningdek, bunday hududlar odamlarda stressni kamaytirishga yordam beradi. Charchoq tez tarqaydi. Bundan tashqari, ularning toza va uyg'un muhit odamning umumiy salomatlik holatini yaxshilaydi.

Bir so'z bilan aytganda, “Yashil makon” loyihasi mamlakatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, barqaror rivojlanishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirishda katta ahamiyatga ega. Yashil hududlarning ko'paytirilishi atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va salomatlik sohalarida ham ijobjiy o'zgarishlarga olib keladi. Ayni kunlarda mamlakatdagi barcha hududlarda mazkur loyiha doirasida amalga oshiriladigan tadbirlar ekologiyaga bo'lgan munosabatni isloh qilish va yangi “yashil” iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan muhim qadamdir. Zotan, ekologiya – hayot unsuri.

**Navro'zbek YUSUPOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik  
palatasi deputati,  
Ekologik partiya  
fraksiyasi a'zosi**

# “BULAR MENING SAYYORLARIM”

O'tayotgan har bir kunimiz xotiraga aylanib bormoqda. Ko'z oldimizda yurgan qancha yaqinlarimiz bu olamni tark etmadi, deysiz. Hozirimizdan 100 yil keyin bu musaffo osmon ostida birortamizdan gard ham qolmaydi. To'rt kunlik hayotini besamar o'tkazayotgan do'st-u birodarlarimizni ko'rib, ko'nglim bir muddat xomush tortadi. Yoshi bir joyga borib qolgan, tirikligidayoq unutilib borayotgan insonlar ham yo'q emas. Umrida birovga nafi tegmagan, yo'lda yotgan toshni u yerdan bu yerga olmay, “Bersang yeyman, ursang o'laman” deb yashab o'tayotganlar ham bor. Odamning qancha yashagani emas, qanday yashagani muhim, deb bekorga aytishmagan ota-bobolarimiz. Sizlarga so'zlab bermoqchi bo'lgan qahramonim esa qisqa umri davomida o'zidan barhayot xotira qoldirib ketgan.

9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan Vatan himoyasi yo'lida, mardlarcha jon bergen askarlarimiz yodini abadiylashtirish maqsadida yurtimizda turli sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Toshkent shahridagi “G'alaba bog'i”ning ochilishi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi. Yaqinda nashrdan chiqishi kutilayotgan “Ajodolar izidan” nomli kitob ham janglarda mardonavor jon bergen askarlarimiz yodini abadiylashtirishga qo'yilayotgan katta qadamlardandir. Ular yashagan xonadonlarga tashrif jarayonida ko'nglimdan o'tgan tuyg'ular, ularning doim qalbimizda barhayot ekani, balki bizdan keyin ham yodi tirik bo'lishiga ishonch berdi.

Xuddi shunday xonadonlardan biri – marhum leytenant Sayyor Sadinov yashagan hovli e'tiborimni tortdi. Sayyorning validasi Roziya onaning so'zlarini katta hayajon bilan tinglar ekanman, qahramonimizning bolaligiga qo'shilib bola, ulg'ayganida esa do'st bo'lib yonida yurgandek his qildim o'zimni.

## Roziya ona shunday hikoya qiladi:

– Turmush o'rtog'imdan ayrliganimdan so'ng bolalarimning yelkasiga oila mas'uliyati juda erta tushdi. Sayyorim barvaqt ulg'ayib qolgandek tuyulardi o'zimga. Bolalardek xarxasha qilib, nimaningdir ustida yig'laganini bilmayman. Maktab paytlari ham doim sinfdoshlarini oldi bo'lib yurardi, biror marta bo'lsinki, ortidan yomon gap eshitgan bo'lsam. O'zimning ham shu farzandimni koyib, urushganim yodimda yo'q. Men ish bilan sahar ketib, tun qaytardim. Kelgunimcha hamma

ishlarni joy-joyiga qo'yib, ukasiga qarab o'tirardi. Katta odamlar bilan suhbatlashgandek gaplashardik. “Onajon, hali sizni dunyodagi eng baxtli ona qilaman, hajlarga yuboraman, katta uylarimiz bo'ladi”, deb orzular qilardi. Xo'jayinim juda yaxshi ko'rardi. Tillariga solganmi, aytardiki: “Sayyorning qomati, bo'y-basti yaxshi, harbiy qilaman!” Xuddi aytganlariday bo'ldi. Sayyorim otasining aytganidan ham yaxshiroq xizmat qildi, Vatanimizga. Bolamdan ko'nglim to'q edi, boshqacha bola bo'lgan...

Xona to'rida turgan suratlarga termilaman, nigohlari o'tkir, so'zlar keksir yigit gavdalanadi xayoliimda. Haqiqiy jangchi, qo'llarida turgan qurol ham go'yo shunday pahlavonning panjalarida ekanidan mammundek tuyiladi. Yovqur jangchi-a, deyman o'zimga o'zim.

## So'ng yana Roziya onaning gaplariga qulqoq tutaman:

– Maktabni tamomlagach, Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtiga o'qishga kirdi. Sirli yigit edi bolam, xizmati haqida gap ochmasdi. Avvali boshda harbiy bo'lishiga qarshilik qilganim uchun shunaqa qilsa kerak, deb o'ylaganman. Keyin tushunib yetdim, harbiy sirlarni o'zidan boshqaga ishonmas ekan, hatto menga ham. 1998- yoki 1999-yillar “Vatanparvar” gazetasida chop etilgan maqolalardan birida Sayyorimni ko'rib qoldim “Jasorat” medali bilan taqdirlanganini. Telefon qildim. “Sayyor seni Prezidentimiz taqdirlabdi”, deb sababini so'raganimda, yaxshi o'qiganim uchun, deb qo'ygandi.



Hayron qolganman, o'qishda yaxshi o'qigani uchun ham “Jasorat” medali berilarmikan deb. Televizorda ko'rardim, halok bo'lganlarga, biror katta qahramonlik ko'rsatganlarga berishini. Sayyorim 21 yoshida leytenant bo'lgan mard, jasur, shu bilan birgalikda mehribon yigit edi. Biror insonning ko'nglini qoldirmasdi, toza, sarishta yurardi, hammaning nazariga tushgandi. Kuchli edi o'g'lim, hech narsadan qo'rmasdi, merganlikka uquvi ko'p edi. Qaysidir tanlovda merganlik bo'yicha bellashuvda qatnashib, ming harbiy ichidan birinchilikni olgan. Amerikaga borib keldi, beshta shtatida bo'lganman, deb aytib berardi. Sayyor Chirchiqda yashagan, o'sha yerda ham ko'p rasmlari, narsalari bor. Portretlarini o'rtoqlari olib ketardi, esdalik uchun. Shunday qilib, o'g'lim qanday faoliyat qilganini, qadr-qimmati qanchalik ekanini o'shanda bildim. Ta'ziyada do'stleri guruh-guruh, batalyon-batalyon bo'lib keldi, shunda har biridan Sayyorimning qanaqa yigit ekanini bilganman. Ular aytardiki, u guruh komandiri bo'lgan paytlarda birovga sen shu yerdan o'tishing kerak demas edi, o'zini avtomatini tepaga ko'tarib, suvdan o'tish kerakmi, botqoqlikdan o'tish kerakmi, o'zi ko'rsatardi, keyin qo'l ostidagilar ko'rib, uning orqasidan o'tar edi. Kimdan eshitsangiz ham, kimdan so'rasangiz ham Sayyorim haqida yonib gapiradi.

Men jim termilaman, albomlardagi suratlarga va bexos albom orasida uncha eski bo'limgan bolalar suratiga ko'zim tushadi.

– Bular mening Sayyorlarim, – deydi Roziya ona. Xonadonimizga yo'qlab keladigan do'stlari, harbiylarning Sayyor haqida faxrlanib gaprishlari, uning mardligi, jasoratini qayta-qayta aytishlaridan ko'nglim taskin topadi. O'sha paytlarda ko'pchilik menga qo'g'iroq qilib, yoki uchrashganda “O'g'limga Sayyor deb ism qo'ymoqchiman”, derdi. Ularning bu gaplaridan xursand bo'lardim. Sayyorlarning sog'lig'i, o'qishlaridan xabar olib turardim. Suratlarini yuborishlarini so'rab, farzandimdan faxrlanib o'tiraman. Hozirda Sayyor ismli yigirmadan ortiq bolalarni bilaman, ularning ayrimlari katta yigit bo'lib qolgan. O'zim ham nabiralarimidan biriga shu ismni qo'yanman. Chirchiqqa yo'lim tushganida o'g'limning do'stining xonadonida mehmon bo'ldim. “Aajax, do'stimning xotirasi doim dilimda, ismi ham tilimdan tushmasin, deb nabirangizga do'stimning ismini qo'yanman, nasib qilsa, uylantirsam, o'zingiz bosh-qosh bo'lasiz”, deydi. Bulardan boshim osmonga yetguday xursand bo'laman. Shunday farzand tarbiya qilganimdan g'ururlanaman. Bolamning qolgan umrini shu yigitlarga qo'shib berishini Xudodan so'rab, duo qilaman!

Suhbatni yakunlab qaytar ekanmiz, onaxonga qo'shilib bir sharpa ta'qib etgandek bo'ladi. O'ylayman, Sayyor Sadinovning ruhi doim onasining yonida, Vatan xizmatiga shay turibdi deb. Qahramonlar o'lmaydi. Ular qaysidir mard yigitning hayotida qayta-qayta yuz ko'rsataveradi.

**Muhammadali G'OFFOROV,  
“Vatanparvar”**

Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi

# UZOQ UMR KECHIRISHNING 15 TA QOIDASI



Parkent o'zining so'lim tabiatni, Chimyon tog'lariiga tutashib ketgan qir-adirlardagi uzumzorlari bilan mashhur. Parkentning "Chillaki", "Rizamat", "Kishmish", "Buvaki", "Toifi" uzum navlari bilan nafaqat yurtimizda, balki dunyoda dong taratgan, desak, adashmaymiz. Zarkent, So'qoq, Kumushkon, Nomdanak, Sanginek, Nevich kabi aholi punktlaridagi iqlim sharoiti yilning to'rt faslida ham turistlarni o'ziga jalb etib keladi.

Xalq etimologiyasida parilar yurti deb e'tirof qilanadigan bu zaminning Anorboy Jalilovdek qahramonlari ham bor. Nomdanaklik 101 yoshli otaxon Ikkinchini jahon urushi qatnashchisi. 1943-yilning 20-oktabridda tashkil qilingan Belarus frontida Yevropani fashist bosqinchilaridan ozod etishda munosib hissasini qo'shgan. Bir asordan ko'p umr kechirishiga qaramay, hali ancha tetik. Eng ahamiyatlisi, ko'zoynaksiz yozishi, o'qishi va uxlashi oldidan jismoni mashq bilan shug'ullanishini aytmaysizmi? Mittigina yondaftariga uzoq yashash sirlaridan tortib, kun tartibi va qiziqrli ma'lumotlar qayd etgani diqqatga sazovor. Shu yoshida xotirasining kuchliligini aytmaysizmi? Voqealarning kunidan tortib, soati va qayerda bo'lganini xuddi hozirigiday eslaydi.

Otaxonning bolalik yillari 30-yillarning qahatchilik davriga to'g'ri keldi. Shuning uchun oilaning har bir farzandi, jumladan Anorboy ota ham yashash uchun o'z holicha kurash olib bordi. Qorin to'yg'azish ilinjida yoshiga to'g'ri kelmaydigan yumushlarni bajarishdan tashqari, ilm olishni kanda qilmadi. O'smir yoshiga yetganda urush boshlanib qolishi u singari tengqurlari zimmasiga yanada ko'proq tashvishlarni yukladi. Chunki kattalar yoppasiga frontga otlanib, oila tashvishi va kolxozdagi barcha ishlarni xotin-qizlar hamda o'smirlarga qolgandi.

1944-yilning kuziga kelib Anorboy Jalilov 18 yoshida frontga jo'natildi. Parkentda to'plangan guruh piyoda yo'l bosib Toshkentga, keyin esa yuk tashuvchi vagonlarda Qozog'istonning Semipalatinsk shahriga yetib keladi. Anorboy Jalilov poligonda qisqa tayyorgarlik bosqichidan so'ng Moskvadagi zaxira fronti saflarini to'ldiradi. Qisman rus tilini bilgani uchun reaktiv artilleriya divizioniga qabul qilingan. BM-31-12 ("Katyusha") nomi bilan urushda nom qozongan reaktiv artilleriya divizioni boshqa qo'shin turlaridan farqli ravishda janglarda to'g'ridan to'g'ri ishtirok etmagani bilan ahamiyatli. Negaki, "Katyusha"chilar qarshi hujumlardan oldin, bir necha kilometr uzoqdan dushman tomon snaryadlarni yog'dirgan. Shuning uchun Anorboy ota urushning birinchi chizig'ida qatnashmaganini o'zining tirik qolishidagi birinchi omadi deb hisoblaydi.

- Urushga ketishimga qadar akalarim Miromil va Mirziyod frontda bedarak yo'qolGANI haqida xabar oldik, deb eslaydi Anorboy Jalilov. - Buning ustiga mahallamizdagi ko'p xonadonlarda "qoraxat" tufayli aza ochildi. Qishlog'imizning navqiron yigitlari jang maydonlaridan qaytmadi. Shu sababli ketish oldidan Parkentning diyordiga to'yib-to'yib oldim. Albatta, tirik qaytamani deya xayolimda o'zinga o'zim so'z berdim. Urush

qo'rqoqlarni kechirmasligini yaxshi bilardim. Ammo ne-ne ajal changalidan chiqishning birgina yo'li o'limga tik boqib, yov bilan mardonavor kurashish edi. Bunga ruhan tayyor edim. Qalbimda halok bo'lgan hamqishloqlarim, hamyurtlarim uchun qasos o'ti yonardi. Taqdir taqozosi bilan reaktiv artilleriya divizioni safiga tushib qoldim. Birinchi bor dushman bilan Frankfurt-Mayn shahri yonidagi o'rmon yaqinidagi jangda to'qnash keldik.

"Katyusha"chilar dushmanaga katta talafot yetkazgani uchun fashistlar diversiya guruhlari bilan divizionimizga qo'qqisidan hujumlar qilib qolardi. Shunda avtomat va karabin miltiqlari bilan yuzma-yuz jang qilishimizga ham to'g'ri kelgan. Artilleriya qurilmalarini dushman hujumidan qo'riqlashda bizga alohida bo'linma ham biriktirilgandi. Xullas, kamsonli yuzma-yuz janglarda qatnashganimga qaramay, fashistlardan hamqishloqlarimning, hamyurtlarimning qasosini oldim. Divizionimiz Belarus fronti qo'mondoni marshal Rokossovskiy boshchiligidagi Polshani 1945-yilning boshida nemis bosqinchilardan ozod qildi. Bu bilan Berlinga yo'l ochilib, g'alaba onlarini yanada yaqinlashtirdi. Xullas, oradan ko'p o'tmay, urush tugadi. Qo'shinlarda uzoq vaqt xizmat qilganlarga uyiga javob berildi. Menga o'xshagan yoshlar xizmatni davom ettiradigan bo'ldik va 1950-yil 21-oktabrga qadar Germaniyada qoldim. Orada komandirlarim meni kichik komandirlar tayyorlash maktabiga o'qishga jo'natishti. O'qishni tugatib, serjant unvoniga ega bo'ldim va bo'linma komandirligiga tayinlandim.

Parkentga qaytganimdan keyin pedagogika o'rt-a-maxsus texnikumida tahsil oldim. Kunlarning birida Mahmud Kenjaboyev degan sobiq ofitser tuman markaziga chaqirib, boshlang'ich sinflarni o'qitish bo'yicha taklif qilib qoldi. Shu-shu 33 yil davomida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ustozlik qildim. Ora-orada rus va nemis tili bo'yicha yuqori sinflarga ham dars o'tib turardim.

Otaxon bilan suhbatimiz jarayonida uning uzoq umr kechirish sirlari va yodidan chiqmaydigan uchta eng muhim voqeani so'radik.



- Uzoq umr kechirishning 15 ta qoidasi bor, - degancha yondaftarchasini olib, ularni birmabir o'qiy ketdi: - Eng birinchisi, bo'lar-bo'lmasga asabiyashish kerak emas. Keyingilari mutazam jismoni harakat, to'g'ri ovqatlanish, ruhiy barqarorlik, xushmuomalalik, hayotni seva olishlik, atrofdagilar bilan til topa olishlik... Hech qachon yodimdan chiqmaydigan voqealar uchtadan ko'p, menimcha. Qahatchilik davrida kechgan yoshligim. O'sha paytlarni eslasam, bugungi kunimizga shukrona keltiraman. Keyin xizmatdan berilgan ta'til tufayli ikki haftaga Parkentga kelib-ketishim. Qaytishda belaruslik quroldosh do'stim Nikolayning uyiga, Baranovichi shahriga kirib o'tganim. Hali ham esimda, unikiga Parkent uzumlaridan, nonlaridan olib borganman. Kolya ham uydigilarni ogohlantirib qo'ygan ekan, Zinaida degan singlisi uzoqdan tanib kutib oldi. G'alaba kuni komandirimizni tepaga otganimiz, bir-birimizni quchoqlab yig'laganimiz. 100 yoshimda Samarqandga ziyoratga borganim, Xotira va qadrlash bayramida davlatimiz rahbari bilan uchrashganim...

101 yoshni qarshilagan Anorboy otaning qiyin davrlarni eslab, ko'zlarida yosh halqalanishi ko'rib, bugungi kunimizga shukrona keltirishini eshitib, ancha suukt saqlab qoldik. Otaxon gap orasida 10 nevara, 30 evara, 50 chevaraning sevimli bobosi ekanini faxrlanib oytiib o'tdi. U bosib o'tgan mashaqqatli umr yo'liga chetdan qarar ekanmiz, Anorboy Jalilov hayotini sharqirab oqadigan daryoga o'xhatdik. Nomdanak qishlog'idan, shundoqqina Anorboy otaning hovlisi etagidan oqib o'tuvchi Qizilsay fikrimizni qo'llab-quvvatlaganday sharqirab oqmoqda.

Xuddi shu elning qahramon o'g'loni bilan hali hamnafas oqaveraman, degandek pishqirib, loyqalanib, po'rtana bo'lib oqmoqda. Yoz va kuzga Qizilsoyning suvi tiniqlashadi. Qahramonimizning kechmishi ham xuddi Qizilsoyniki singari shishadek tiniqlashib, yaqinlari davrasida dorulamon umr kechirmoqda.

**Asror RO'ZIBOYEV,  
"Vatanparvar"**

# YOSHINGIZ QIROQDAN

Odamlar orasida “Yosh qirqdan o’tganida insonning xotirasi susayib, aqliy qobiliyatları sezilarli darajada pasaya boshlashi tayin” degan yanglish bir tasavvur yuradi. Yoshi endigina o’ttizdan oshganlar ham “Endi xorijiy tilni o’rgana olmayman”, “Yangi bir sohani o’zlashtirish endi ancha murakkab bo’ladi” yoki “Sport bilan shug’ullanishni boshlash vaqtidan o’tdim” deydi. Gapning o’ngi kelganda aytish kerak, Qurolli Kuchlarimizda xizmat qilayotgan ayrim yoshi kattaroq ofitserlar orasida ham qo’lni qovushtirib qo’yib, nomigagina xizmat qilib, nafaqani intizorlik bilan poylab yotganlar yo’q emas. Bugungi ilmiy tadqiqotlar bunday qarashlarning noto’g’ri va zararli ekanini isbotlab berdi.

To’g’ri, yosh o’tib borgani sayin umumiyl holda inson organizmida kuchsizlanish, pasayish, ya’ni organizmning “qariv boshlashi” kabi salbiy o’zgarishlar paydo bo’ladi, albatta. Ammo to’g’ri ovqatlanish, faol hayot tarzi, ong musaffoligini asrash hamda intellekti muntazam mashq qildirib borish singari o’ta foydali tadbirlar inson salomatligi va mehnat mahsuldorligini uzoq yillargacha saqlab qolishini hamma ham tan olavermaydi.

O’z vaqtida matematika, astronomiya, fizika, tibbiyot va boshqa ko’plab sohalarda tub burilishlar, olamshumul ixtiro va kashfiyotlarni qilgan dono xalqimizda “Yosh – umrini bag’ishlar, qari – umrini qarichlar” degan maqol tarqalgan. Bu maqolni insonshunos olimlarning ko’pchiligi, ayniqsa psixologlarning qabul qila olmasligini alohida ta’kidlab o’tish lozim. Sababi shundaki, maqol zamirida muayyan bir ma’no bilan birgalikda hayotdan erta sovimoq, umidsizlik, kelajakka va o’z kuchiga ishonchisizlik ham yotadi. Bunday zararli xususiyatlarni xalqimizda badbinlik, xalqaro tilda esa pessimizm deb ataydi. Hayotda nekbinlik, ya’ni optimizmni hayotiy tamoyil qilib olgan inson esa “Saksonga kirganimda ham shunday sermahsul ishlaymanki, yosolar uyalib, hayratdan yoha ushlaydilar” degan maqsad bilan yashaydi.

## Mana bu ma’lumotlarga e’tibor qarating:

1. Mashhur rus yozuvchisi Lev Tolstoy (1828-1910) “Hojimurod” qissasini 76 yoshida yozib tugatadi.

2. Opera janrining yirik ustasi, nomdor italyan kompozitori Juzeppe Verdi (1813-1901) Shekspir asarlari asosidagi mashhur operalari – “Otello” musiqali fojiasini 73 yoshda, “Falstaff” komik operasini esa 79 yoshida yaratadi.

3. Yangi davr nemis adabiyotining asoschisi, yozuvchi va mutafakkir Johann Wolfgang Gyote (1749-1832) jahon adabiyotidagi shoh asarlardan biri deb e’tirof etilgan “Faust” fojiasini 80 yoshdan oshganida tamomlaydi.

4. Nobel mukofoti laureati, taniqli ingliz yozuvchisi Bernard Shou (1856-1950) 90 yoshdan oshganida ham ijod qilishdan to’xtamagan.

5. Harbiy texnika sohasida otish qurollarining konstruktori, mashhur rus olimi M. Kalashnikov 90 yoshdan o’tganida ham o’zining jahonga mashhur avtomatini mukammallashtirish ishlari bilan shug’ullangan.

6. Salkam 100 yil umr ko’rgan xalqimizning ulug’ shoiri va mutafakkiri Mavlono Lutfiy (1366-1465) esa umrining so’nggi yillarida ham ajoyib asarlar yozgan.

Aniq va tabiiy fanlardan ijodiy mahsulorlikning nisbatan ertaroq so’nishi kuzatiladi. Falsafiy mushohada talab etiladigan ma’naviy sohalardagi ijodiy yuksalish esa aslida 50 yoshlarda pishib yetilib, avjiga chiqadi. Ammo sog’liqni yoshlikdan asrash lozim bo’lganidek, aqliy mehnatning faoliydarajasini ham ilgariroq kuchaytirishni boshlash hamda imkonli boricha to’xtatmaslik juda muhimdir.

**Miyani keksayganda ham sog’lom va faol darajada ushlab turish, ruhan tetik yurish hamda aqliy mehnatning umrini uzaytirishga doir quyidagi tavsiyalarga e’tibor bering:**

### 1. Ishlatasan yoki yo’qotasan

Barchaga ma’lumki, harakatdan to’xtagan har qanday tirik organizm “o’lib” boraveradi. 80-85 foizi suvdan iberot bo’lgan insonning miysi harakatsiz yoki kam harakatli bo’lsa, ko’lmakka o’xshab loyqalana boshlaydi. Doimiy yurib turgan suv esa tiniq va musaffo bo’ladi. Shuning uchun ham necha yoshga kirgan bo’lishingizdan qat’i nazar, o’qish-o’rganish, yodlash, tahlil qilish hamda yangi-yangi taassurotlarni qabul qilishdan to’xtamang! “Ishlat yoki yo’qot” qoidasi, eng avvalo, aqliy mehnat bilan bog’liq faoliyat turlarida, qolaversa, har qanday ishda juda zarur bo’lgan ruhiy jarayon xotiraga taalluqlidir. Agar inson yangi-yangi ma’lumotlarni, faktlarni, raqamlarni yodlab turmasa, uning xotirasi, albatta, sustplashadi. Yangi xorijiy tilni o’rganishga kirishish esa foydali.

### 2. Jismoniy mashqlar va intellekt

Mutaxassislarining fikricha, jismoniy mashqlar butun tanani, xususan miyani ham kuchaytirib, yaxshiroq ishlashni ta’minlaydi. Shunday ekan, diqqat, xotira, tafakkur kabi muhim ruhiy jarayonlarni keksalikda ham “jangovar” holatda ushlab turish uchun haftada uch marta, kamida yarim soatdan intensiv jismoniy mashqlar bilan shug’ullanish.

### 3. Miyani oziqlantirish

Sog’lom ovqatlanish tamoyillariga amal qiling. Miya uchun foydalib bo’lgan taomlarni, ayniqsa B guruhidagi vitaminlarga boy bo’lgan yeguliklarni iste’mol qiling. Organizmda B<sub>12</sub> vitaminining yetishmasligi xotiraning kuchsizlanishi, parishxonotirlik va jizzakilik kabi salbiy xususiyatlarning rivojlanishiga olib keladi. Miyani juda yaxshi oziqlantiradigan bu darmondorini jigardon topishingiz mumkin. Yog’li ovqatlarni xush ko’rsangiz, yog’li baliq yeb turishni odat qiling. Kuchli antioksidant bo’lgan uzum, anor, yong’oq, chernika, smorodina kabilarni ko’p iste’mol qiling. Turli ko’katlar va dukkakli o’simliklar, shuningdek ko’k choy ham antioksidant bo’lib, miya uchun foydalidir.

### 4. Ruhiy salomatlikni asrash

Har qanday vaziyatda ham xotirjamlikni saqlay olish, o’z-o’zini nazorat eta olish, hissiyotlarni jilovlash, o’z imkoniyatlaridan foydalana olish, samaradorlik bilan yaxshi ishlay olish hamda o’zi yashab turgan jamiyatning ravnaqiga hissa qo’sha olish kabilalar ruhan sog’lom insonga xos bo’lgan sifatlardir. Ruhan nosog’lom insonga uyquning buzilishi, xotiraning susayishi hamda yomon fikr va hissiyotlar xos bo’ladi.

Shunday ekan, uyquni yaxshi va chuquq bo’lishiga harakat qiling hamda mehnat va dam olish rejimini maqbul yo’lga qo’ying. Ruhiy salomatlikda “fikrlarni boshqara olish” ayniqsa muhimdir. Diqqatingizni hayotning yorqin tomonlariga yo’naltiring. Salbiy fikrlarni o’zingizga iloji boricha yaqinlashtirmang. Har qanday ko’ngilsizlikdan hikmat va yaxshilik qidiring. Bizning fikrlarimiz qanday bo’lsa, ruhiy holatimiz ham shunday bo’lishini unutmang.

### 5. Neyrobika

Neyrobika mashqlari yordamida ham bosh miya salomatligi hamda aqliy quvvatga erishish mumkin. Neyrobika “Nerv hujayralarini harakatlantirish, mashq qildirish” degan ma’noni anglatadi. Neyrobiikaning sodda va kam vaqt talab etadigan mashqlariga: xonada yumug ko’z bilan yurish, odatiy ishlarni chap qo’lda (*chapaqay bo’lsa, o’ng qo’lda*) bajarish, odat bo’lib qolgan yo’nalishlarni o’zgartirib turish, yangi tanish va do’stlar orttirish kabilalar kiradi. Neyrobika yordamida miyamizda ishlamay, mudrab yotgan dangasa hujayralarni harakatga keltirib, miya yarim sharlari o’rtasidagi bog’lanishni yanada mustahkamlaysiz.

**Haydarbek HAMDAMOV,  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Pedagogika-psixologiya  
fakulteti katta o’qituvchisi**



Poydevor

# YOSHLARNING

## VATANPARVARLIK TARBIYASI:

### asoslar, usullar va zamonaviy qarashlar

Vatanparvarlik tarbiyasi – bu yoshlarning Vatanga muhabbat, uning tarixi, madaniyati, an'analari va qadriyatlariga hurmat hisini shakllantirishga qaratilgan tizimli va maqsadli faoliyat. Bu faoliyat nafaqat Vatanga emotisional bog'liqlikni, balki fuqarolik javobgarligini, yurtni himoya qilishga tayyorgarlikni va jamiyatda faol ishtirok etishning ahamiyatini anglashni o'z ichiga oladi. Globallashuv, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va tez o'zgarishlar sharoitida bu mavzu, ayniqsa o'z dolzarbligini namoyon qiladi.

Vatanparvarlik faqat davlatga sodiqlik bilan cheklanmaydi. Bu yanada chuqur tushuncha bo'lib, u milliy va madaniy xilmaylikka hurmat, boshqa xalqlar va madaniyatlarga bag'rikenglik, shuningdek xalqaro hamkorlik va tinchlikka intilishni o'z ichiga oladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifasi tarixiy xotirani shakllantirishdan boshlanadi. Birinchi

navbatda, yoshlar o'z mamlakatining tarixini bilishi va tushunishi kerak. Bu tinchlik va barqarorlikning qadrini anglashga, shuningdek avvalgi avlodlar bilan bog'liqlikni his qilishga yordam beradi. Vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga, qonunlarga riyoq qilishga va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishga o'rgatadi.

Yoshlar o'z mamlakatining an'analari, urf-odatlari, tili va san'atini bilishi va qadrlashi kerak. Hozirgi globallashuv sharoitida madaniy merosga hurmatni tarbiyalash milliy o'zlikni saqlab qolishga yordam beradi. Bunday tarbiyaning yana bir jihat yoshlarning Vatanini himoya qilishga tayyorligini shakllantirishni talab etadi. Bu nafaqat harbiy xizmat, balki davlatning mudofaa qobiliyati va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan fuqarolik pozitsiyasidir.

Ekologik ongни rivojlanirish ham vataparvarlik tarbiyasining bir vazifasidir. Vatanga muhabbat uning tabiat, resurslari va ekologiyasiga g'amxo'rlikni o'z ichiga oladi. Yoshlar kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni saqlab qolishda o'z rolini anglashi kerak.

Vatanparvarlik tarbiyasi turli shakl va usullar

orgali amalga oshiriladi, ular an'anaviy va innovatsion usullarni o'z ichiga olishi mumkin. Ular qatoriga ta'lif dasturlari, harbiy-vatanparvarlik tashkilotlari, madaniy tadbirlar, volontorlik va jamoatchilik faoliyati, yangi IT va raqamli texnologiyalar, turizm orqali amalga oshirish usullari kiritiladi. Maktablar, oliy o'quv yurtlari va boshqa ta'lif muassasalari vatanparvarlik tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Tarix, adabiyot, jamiyatshunoslik kabi fanlar, shuningdek darsdan tashqari tadbirlar yoshlarda vatanparvarlik hisini shakllantirishga yordam beradi. Milliy madaniyat va tarixga bag'ishlangan festivallar, ko'rgazmalar, konsertlar vatanparvarlik hissini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish, faxriylarga yordam ko'rsatish, shahar va qishloqlarni obodonlashtirish yoshlarda javobgarlik hissini shakllantiradi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar davrida zamonaviy texnologiyalardan vatanparvarlik tarbiyasida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Onlayn kurslar, virtual muzeylar, vatanparvarlik bloglari va videoroliklar samarali vositalarga aylanishi mumkin. Vatan bo'ylab sayohat qilish, uning tabiat, tarixi va madaniyatini o'rganish yoshlarga Vatanini yanada yaxshi anglash va uni sevishga yordam beradi.

Yoshlarni jismoniy tayyorgarlik, harbiy ishlarni o'rganish va do'stlik ruhini tarbiyalashga yo'naltirilgan "Vatan tayanchi" kabi harbiy-vatanparvarlik harakati muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamonda vatanparvarlik tarbiyasi bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi, ular yangi yondashuvlar va yechimlarni talab etadi. Yoshlar chet el madaniyatining ta'siriga berilib qolishi mumkin, bu esa milliy identifikatsiyaning susayishiga olib kelishi mumkin. Boshqa madaniyatlarga hurmat bilan birga o'z madaniyatini saqlab qolish muhimdir. Internet va ijtimoiy tarmoqlar manipulyatsiya va noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatish maydoniga aylanib qoldi. Vatanparvarlik tarbiyasi tanqidiy fikrlash va mediasavodxonlikni o'rgatishni o'z ichiga olishi kerak.

Jamiyatning tabaqalashuvi, ijtimoiy notenglik va siyosiy qaramaqshiliklar sharoitida yoshlarni Vatanga muhabbat, tarixga hurmat va tinchlikka intilish kabi umumiyyat qadriyatlar atrofida birlashtirish muhimdir. Tabiat va ekologiyaga g'amxo'rlik ham vataparvarlikning muhim qismiga aylandi. Yoshlar atrof-muhitni saqlab qolishda o'z rolini anglashi kerak. Ba'zi mamlakatlarda tarixni qayta ko'rib chiqish, faktlarni buzish va o'tmis haqida noto'g'ri tasavvurlarni shakllantirish kuzatilmoqda. Tarixni to'g'ri va obyektiv o'rgatish muhimdir.

Vatanparvarlik tarbiyasi oiladan boshlanadi. Ota-onalar, bobo va buvilar yoshlarga an'analarni yetkazib beradi, oilaviy tarix haqida gapiradi, kattalarga hurmat va Vatanga muhabbatni o'rgatadi. Biroq jamiyatning umumiyyati roli ham katta ahamiyatga ega. Davlat institutlari, ta'lif muassasalari, OAV va jamoat tashkilotlari birlashtirishda vatanparvarlik ruhidagi avlodni shakllantirish uchun sharoit yaratishlari kerak.

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish joizki, yoshlarning Vataniga muhabbat, uning tarixiga hurmat va rivojida faol ishtirok etishga tayyorgarligini shakllantirish muhimdir.

Vatanparvarlik – bu nafaqat o'tmis, balki kelajak. U avlodlarni birlashtiradi, qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi va kuchli, obod davlat barpo etishga imkon yaratadi. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan yoshlar kelajakda o'z mamlakatining poydevoriga aylanadi.

**Podpolkovnik V. LIXANOV,  
Qurolli Kuchlar akademiyasi  
katta o'qituvchisi**



# NODIR MIRZO

# DEVONBEGI

## XON DARAJASIDAGI IQTIDOR VA SIYOSAT SOHIBI

**Tarixda shaxslarning tengsiz o'rni, katta-kichik masala, tarmoqlardan tortib butun bir davlat va yurt, mintaqa va xalqlar, hatto kishilik taqdiri va taraqqiyotiga ta'sirini hech kim inkor etmagan va etolmaydi ham. Shu bilan birga, bu haqda so'z ketganida, asosan atoqli siyatlarga urg'u berishga odatlanganmiz. Vaholanki, uncha-muncha kishining qo'lidan kelmaydigan xizmatlarni qilgan, e'tirof, hurmat va har bir avlod esda tutishi, ibrat olishiga loyiq, biroq tarixchi olimlar tomonidan "yuzaga chiqarilmagan" ajodolarimiz ham ko'p. Ulardan biri o'zbek davlatchiligi tarixida o'ziga xos iz qoldirgan arbob Nodir mirzo devonbegidir.**

**NODIR MIRZO DEVONBEGI**  
shaxsini juda kamchilik, shunda ham Buxoro va Samarqandda shu ism bilan bog'liq madrasa va xonaqohlarni qurdig'an odam sifatida biladi. Holbuki, arbobning obro'si, umuman, millatimiz va davlatimiz tarixida tutgan o'rni aslida ancha ko'lamli va zalvarlidir.

Nodir mirzo devonbegi 1568-yili o'ziga to'q, yirik yer egasi Sulton mirzo oilasida tug'ilgan. Samarqand viloyatining Orlot qishlog'idan oqib o'tuvchi Sangloq suvi uning bobolariga tegishli edi. Onasining ismini bilmaymiz, biroq u Imomqulixonning qarindoshi bo'lgani aniq. Nodir mirzo devonbegining Imomqulixon tog'asi sanalishi hamda uning chaqirilishidagi "tog'ay" aniqligining sababi ham shundandir.

Uning xotini haqida hozircha ma'lumotlarga duch kelmagan bo'lsakda, Og'ajon va Oyim otli ikki qizi, bir o'g'i bo'lgani ma'lum. Xususan, Mutribiy Samarqandiy Nodir mirzo devonbegi Samarqand viloyati hokimligi chog'i 1624-yili o'g'il ko'rGANini yozadi.

**BO'LAJAK SIYOSIY VA HARBIY**  
**ARBOB** dunyoga kelgan palla - o'n oltinchi yuz yillikning ikkinchi yarmi o'zbek davlatchiligi tarixida yuz yil hukmronlik qilgan Shayboniyalar sulolasining eng ko'zga ko'ringan vakili Abdullaxon boshqaruv yillariga to'g'ri keladi.

Gap shundaki, Amir Temurga nisbatan ixlosi yuksak Abdullaxon Samarqand, Toshkent, Savron, Yassi, O'tror, Sayram, Farg'ona, Badaxshon, Ko'lob, Xorazm, Xuroson, Koshg'ardan iborat ulkan hududni davlatimizning o'sha paytlardagi poytaxti Buxoro atrofida birlashtira olgan, tinchlikni ta'minlagan, iqtisodiyot rivojanishni uchun sharoit yaratgan va ko'plab qurilish va obodonchiliklarni amalgaga

oshirgan buyuk shaxs sanaladi. Agar u sohibqiron Amir Temur, Shohrux, Sulton Abu Saiddan keyin Turon va Xuroson boshqaruvini mahkam qo'lga olgan so'nggi o'zbek hukmdori bo'lgani inobatga olinsa, Abdullaxon davrining o'zbek davlatchiligi o'tmishidagi o'rni yanada oydinlashadi albatta.

Demak, Nodir mirzo devonbegining bolalik va yoshlik kezlari mana shunday muhim tarixiy voqealarga boy bosqichga to'g'ri kelgan. Mazkur omil uning dunyoqarashi, fe'l-atvoriga ta'sir o'tkazishi turgan gap edi. Qolaversa, o'sha davr madaniy muhit talablariga mos ravishda avval maktab, so'ng madrasada tegishli bilimlarni pishiq egallagan. Harbiy san'at sirlarini o'rgangan, jismonan chiniqqanini hayotining keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealar yorqin ko'rsatadi.

**1598-YILI ABDULLAXONNING O'LIMI**dan ko'p o'tmay, Shayboniyalar sulolasining hukmronligi yakun topadi. O'zbek davlatchiligi boshqaruviga Ashtarxoniyalar keladi. Nodir mirzo devonbegining kelgusi kechmishlari ham aynan shu sulola bilan bog'liq.

O'zining aqli, botirligi va sadoqati tufayli yangi siyosiy xonadonning ishonchini qozona boshlagan amirning yuksalishi Boqi Muhammadxon zamonida, Samarqand viloyatiga hokim etib tayinlangan Imomquli sultonning otalig'ligiga loyiq ko'riganida sodir bo'lgan. Shahzoda hokimligi yillari viloyatda barqarorlik qaror topib, xalq ahvoli har qachongidan-da yaxshilanishi, qator bunyodkorlik ishlari ro'y berishida Nodir mirzo devonbegining ham o'rni bo'lganini chandalash qiyin emas. Aks holda, 1611-yili taxtga o'tirgan Imomqulixon ko'p ham o'tmay - 1612-yili uni poytaxtga chorlab, davlatning ichki va tashqi siyosatini yuritishda hukmdorga eng yaqin arbob

sanalmish katta devonbegi mansabiga tayinlamagan bo'ldi.

Nodir mirzo katta devonbegi mansabi egasi sifatida Imomqulixon yonida ichki siyosatda asosiy yordamchi sifatida turadi va mansab vazifalarini to'liq, adolatli ado etadi. Jumladan, manbalarda Imomqulixon davrida yurt iqtisodiy jihatdan to'kis bo'lgani haqida qaydar uchragani holda, xalqning markaziy hokimiyatdan norozi bo'lganlari haqida guvohliklarda ko'rinnmaydi. Imomqulixon xalq holdan xabardor bo'lish uchun oddiy kiyimda xalq orasida yurishni odat qilganini keltirgan Muhammadyusuf munshiy Nodir mirzo devonbegi doim unga hamrohlik qilganini ham qistirib o'tadi.

**KEZI KELGANDA**, Nodir mirzo devonbegi oliy hukmdorga o'z so'zini o'tkazishni yaxshi egallagan arboblardan sanaladi. Masalan, Toshkentga hokim qilib tayinlangan o'g'li Iskandar sulton o'dirilganini eshitgan Imomqulixon 1612-yili darhol Toshkentga yurishga otlanishga qaror qilganida, aynan u Xoja Hoshim bilan birgalikda uni Balx qo'shini yetib kelguncha kutib turish va so'ng yurishga otlanishga ko'ndiradi. Mazkur yurishdan qaytishda dashtda uyuşhtirilgan ohu ovi ko'ngildagidayd chiqmaganidan g'azablangan xon aybdor o'laroq mahalliy ko'chmanchi aholining mol-mulki, chorvalarini musodara qilishni buyurganida ham Nodir mirzo devonbegi Shukurbiy otaliq va Tojiddin Hasanxoja bilan birgalikda Imomqulixonni fikridan qaytarishga erishadi. Abulay sultonning o'limida ayblanib, Imomqulixon tomonidan qatliga hukm etilgan Nazarbiy naymanni o'limdan qutqarib qolgan ham devonbegi bo'lgan.

**TASHQI SIYOSATNI OQILONA**  
**YURITISHDA** ham Nodir mirzo devonbegi Imomqulixonga o'z

maslahatlari bilan yordam beradi. Xususan, buni Badaxshon masalasi sabab Imomqulixon va Jahongirshoh munosabatlari buzilishi bilan bog'liq jarayondagi elchilikda ko'rishimiz mumkin. Ya'ni boburiy hukmdor yuborgan Hakim Hoziq boshliq elchilikning xon tomonidan olti oy qabul qilinmasligi oqibatida siyosiy mojaroy yechim bilan hal qilinadigan darajaga yetishi, savdo munosabatlariga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi o'ta ayonlashib qolgan sharoitda aynan Nodir mirzo devonbegi Imomqulixonni ularni qabul qilishga ko'ndirolgani ma'lum. Natiжda aloqalar yana iliqlashadi.

Kezi kelganda esa Nodir mirzo devonbegi qurol kuchiga tayanishdan ko'ra siyosiy mahoratni ishga solishni afzal ko'rganini ham diqqatdan qochirmslik kerak. Buning isbotini Imomqulixon va Jahongir sulton o'rtasida munosabatlarni yaxshilash yo'lidagi urinishlarida ham ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, qozoq sultoni Jaloyirbiy Saqol orqali yuborgan xatiga javoban o'zbek hukmdori nomidan maktub tayyorlatadi va unda Imomqulixon Sayram viloyati boshqaruvini Jahongir sultonga bergani haqida inoyatnomasi bitib yuborilayotgani, binobarin, u Imomqulixon hukmronligini tan olishi, doimo o'zaro yaxshi munosabatlarni saqlashga intilishi, isyon qilmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

### ROSSIYA BILAN

**MUNOSABATLARDA** ham Nodir mirzo devonbegining salmoqli o'rni sezildi. Xususan, Mixail Romanov tomonidan yuborilgan Ivan Xoxlov elchilikini kutib olgan, xon va elchi orasida asosiy vositachi bo'lgan ham Nodir mirzo devonbegi edi.

Nodir mirzo katta devonbegining turmushda uchrab turadigan turli



adolatsizlik  
o'g'riliklarga  
ham qarshi  
kurashgan  
ma'lum. Jumladan,  
Naqib Ibrohimxoja  
va shayxulislom  
Islomxoja o'zaro til  
biriktirib, asli Xorazm  
sayyidlaridan, Chorjo'yda  
xonaqoh va namozxonasi  
bo'lgan Mo'minxonjani ravshani  
mazhabida ayblab, qatl ettirishga  
kirishganlarida asl voqeadan xabar  
topgan Nodir mirzo devonbegi  
Tojiddin Hasanxoja va muftiy Mirzo  
Sharif yordamida mazkur tuhmatni  
fosh etib, uni o'limdan asrab qoladi.  
Boshqa bir gal, Tojiddin Hasanxoja  
o'z xizmatkorlaridan biri bir tuyani  
qop va arqon bilan o'g'irlab ketgani  
va uni topib berishni Nodir mirzo  
devonbegiga arz qiladi. Uning buyrug'i  
bilan xizmatchilari o'g'rini bir oy  
izlab, Samarqandning Saripulidan  
topib, o'g'irlangan mollarni egasiga  
qaytaritadi.

#### U SAROYDA O'RASHIB

**QOLGAN** arbob emasdi. Nodir mirzo o'z davrining mohir sarkardasi, jasoratli amiri ham edi. Tursun Muhammad sulton isyoniga qarshi yuborilgan qo'shinga yetakchilik qilgan ham, uni bostirgan ham Nodir mirzo devonbegi bo'ladi. Umuman aytganda, u davlatimiz shimal chegaralariga tahdid solib turgan qozoqlarga qarshi kurashda ko'p g'ayrat ko'rsatgan qo'shimboshi sanaladi.

U janub yerlari, xususan Xuroson uchun safaviylarga qarshi kurashlarda ham jonbozlik va botirlik ko'rsatgan. Jumladan, 1617-yilning dekabr oyida o'ttiz ming kishilik qo'shinga boshchilik qilib, Obivarddag'i Darjaz yo'lidan Nishopurgacha bo'lgan manzillarni birin-kechin egallaydi. Bayot, Chashmgazak va boshqa qator qabilalar bo'ysundiriladi. Shundan so'ng Mashhadga harbiy yurish uchun tayyorlana boshlasa-da, Eron shohi Abbas xizmatida bo'lgan Marv hokimi Mehrobxon kuchli qarshilikni davom etirayotgani sabab unga qarshi otlanadi. Aks holda, o'zbek qo'shini uchun kelayotgan ozuqa, yordam kuchlarining yo'lini to'sib qo'yishi va oqibatda Nodir mirzo devonbegi qurshovda qolib ketishi mumkin edi. Qolaversa, oldinroq Hisori Shodmon viloyatidan Nodir mirzo devonbegiga qo'shilish uchun kelayotgan bir yarim ming kishilik qo'shin yo'lda to'satdan Marv hokimi Mehrabxon pistirmasiga duch kelib, mag'lubiyatga uchragan edi.

#### IMOMQULIXON 1632-YILI

Marv va Moro'choqqa yuborgan qo'shnlarning birinchisiga Abdulaziz

sulton, ikkinchisiga Nodir mirzo devonbegini sardor etib belgilaydi. U o'n besh ming kishilik qo'shin bilan Marvg'a yetib borganida viloyat hokimi vafot etgan va o'rniga tayinlangan o'g'li Murtazoquli hojar hali qal'aga kirishga ulgurmaganidan foydalaniib, uni yo'lda mag'lub etib, asir oladi, qal'a qamalini davom ettiradi. Bu orada Abdulaziz sulton Yalangto'sh bahodir bilan birgalikda Moro'choq qal'asini egallaydi.

Xuddi shu vaqtida Usmonlilar yirik hujum boshlaganlari, Gurjistonda qo'z'olon ko'tarilgani sharoitida og'ir vaziyatda qolgan Safining Ashtarkoniylar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatishtan o'zga iloji qolmagan. Bunga Imomqulixon ham rozi bo'lgach, Nodir mirzo devonbegi oliy buyruqqa ko'ra, Marv qamalini to'xtatib, asir va qo'lg'a kiritilgan o'ljalari bilan Buxoroga qaytadi.

#### O'N YETTINCHI

#### YUZYILLIKNING 20-YILLARIDA

Nodir mirzo devonbegi Samarcand viloyatini ham boshqaradi. Atrofiga Murtibiy Samarcandiy, Qozi Mahjuriy singari aql-idrokli, tashabbuskor shaxslarni to'playdi. Ular viloyat boshqaruv ishlarida Nodir mirzo devonbegiga yaqindan ko'maklashadi. Mutrubiy Samarcandiying yozishicha, Nodir mirzo devonbegining muhri ichiga "Nizomiddin Nodir mirzo tog'ay so'zum", deb yozilgan.

U hokimlik davrida qabul qilgan ayrim qarorlarga oid guvohliklar manbalarda saqlanib qolgan. Masalan, Samarcandda Hojibiy otaliq do'rmon hokimlik qilgan davrda Amir Temur maqbarasiga ziyoratga kelgan aholi daxma ustiga chiqqani sabab u yerga kirishni taqiqlab qo'ygan edi. Nodir mirzo devonbegi uni bekor qiladi. Ziyoratga kelganlar haftaning faqat seshanba kuni maqbara ichiga kirishlariga ruxsat beradi. Oldingi holatlar qaytarilmasligi uchun maxsus nazoratchi qo'ydirib, daxma ustiga chiqqanlarni qattiq jazolashni buyuradi.

#### DEVONBEGI HAM O'Z

**DAVRINING** badavlat kishilaridan biri edi. Uning Buxoro, Samarcand viloyatlarida ko'pdan ko'p ekin maydonlari, chorva va yaylovlari bo'lgan.

Ilm-u fan, adabiyot va san'at ahlini o'ta qadrlagan Nodir mirzo devonbegi umri davomida ko'paytirib borgan boyliklarining anchasini maktab, madrasa, masjid, xonaqoh, hammom, ko'priklar qurish, o'quvchi, talaba, o'qituvchi, mudarrislarning moddiyati minotiga sarflagan.

Nodir mirzo devonbegining nomini abadiylashtirgan omil uning siyosiy-harbiy faoliyati, boyligi emas, balki butun dunyoga mashhur Labi hovuz majmuasi va Samarcanddagi bonyodkorlik ishlari bilan bog'liqidir. 1619-1620-yillari u Buxoro shahri markazida kengligi 36, uzunligi 42, chuqurligi 5 metr bo'lgan hovuz qazdirgan va atrofini sinchlari bilan mustahkamatgan.

#### HOVUZDAN

#### SHARQDA

1622-1623-yillari Nodir mirzo devonbegining shaxsiy tashabbusi bilan madrasa qad ko'targan. Tashqi o'chov 52 metrga 49 metr, ichki hovlisining kattaligi 34 metrga 30 metr. Peshtoq qanoslarida afsonaviy ikkita Humo qushi bodomqovoq, qiyiq ko'zli quyoshga intilmoqda, har ikkisining qanotlari ostida oq bug'ular o'tlab yuribdi. Hoshiyalariga yirik handasaviy suls, kufiy yozuvlari asosida Qur'on oyatlari bitilgan. Ustungo'shasi - buramasimon. Peshtoqning ikki yon qanotidagi ikki qavatlari, uchtdan chuqur ravoqli old ayvonlar ham peshtoqqa o'xshash qilib, humo qushi, bug'u, naqshlar tasviri bilan bezatilgan. Peshtoq orqali kiriladigan hovliga pishiq g'isht yotqizilgan. To'rt tomondan ikki qavatlari 71 ta kichik hujra bilan o'ralgan. Hujralar yog'och o'ymakorligidagi murakkab naqsh va yozuvlar bilan pardozlangan eshiklar va tuynugiga panjaralar o'rnatalgan holda ziynatlangan. O'z davridayoq yirik ilm markaziga aylangan madrasada ko'plab taniqli olimlar yetishib chiqqanlarini bilamiz. Jumladan, Muhammad Amin Buxoriy zamonasining taniqli shoiri mulla Sayid haqida eslar ekan, uning Nodir devonbegi tog'ay madrasasida tahlil organini ta'kidlaydi.

#### HOVUZNING G'ARBIDA

joylashgan xonaqoh ham Nodir mirzo devonbegi tomonidan 1620-yili hovuz bilan bir chog'da qurdirligani. Imaratning tarhi 27,5 metrga 25 metr, ayvon va xonaqohnining kattaligi 11,2 metrga 12,2 metrdir. Peshtoq qanoslarida zarhal nashqlar uyg'unligida jozibali bezatilgan. Hoshiyalariga yirik handasaviy suls, kufiy yozuvlari asosida Qur'on oyatlari bitilgan. Markaziy gumbazli katta o'tog'ning uch tomonida eshik, g'arb tomonida mehrob bor. Burchaklarida ikki qavatlari 14 ta hujra joylashgan. Aylana zina bilan bino tepasiga chiqiladi. Devorlariga taxmonlar ishlangan.

Hovuzdan shimoli-sharqda 1569-yili qurilishi boshlangan Ko'kaldosh madrasasini ham Nodir mirzo devonbegi nihoyasiga yetkazgan. Shu tariqa 34 metrga 30 metrli ichki hovliga ega, 160 hujrali yirik madrasa o'z bo'y-bastini to'liq ko'rsatadi.

#### DEVONBEGINING

**SAMARQANDDAGI** yaratuvchilik ishlari kelsak, 1630-yili xoja Ubaydulla Ahror masjidining Shimolidagi madrasani aynan u qurdirlgan. Ikki yil davomida ko'tarilgan imaratning tashqi o'chov 52 metrga 49 metr, ichki hovlisining kattaligi 34 metrga 30 metr bo'lib, me'mori va bezash ishlariga xoja Hoshim va Do'stmuhammad boshchilik qilgan.

Madrasa uch tarkibiy qism - darsxona, yotoqxona, xizmatchilar uyidan iborat. Peshtoq qanoslarida Registon maydonida Yalangto'sh bahodir qurdirlgan Sherdor madrasasida tasvirlangan singari sher tasviridan

foydalilanigan: ikki sher oq rangli ikki ohuni quvmoqda. Aynan shu sababli madrasa xalq orasida "Tashqi Sherdor" nomi bilan mashhur bo'lgan. Peshtoqning ustki qismiga yirik handasaviy suls, kufiy yozuvlari asosida Qur'on oyatlari bitilgani holda hoshiyalar ayvon bezaklariga o'zaro uyg'unlashtirib, feruza, yashil va sariq ranglarda mayda va jimjimador naqshlar bilan nafis bezatilgan.

Peshtoq orqali kiriladigan hovliga pishiq g'isht yotqizilgan. Madrasa hovlisida katta masjid, bir qavatlari to'rt darsxona, ikki katta o'tog' va 20 ta hujra bor. Hujralar yog'och o'ymakorligida pardozlangan eshiklar, tuynugiga panjaralar o'rnatalgan holda ziynatlangan. O'z davridayoq talabalar uchun ilm olish maskaniga aylangan madrasa tegrasida xonaqoh va minbar ham qurilgan bo'lib, xoja Ubaydulla Ahror ziyyoratiga kelganlar o'sha yerda namoz o'qigan.

#### MAHDUMI A'ZAM MOZORINI

o'ragan devor va darvozasiga ravoqli binoni ham u qurdirlgan. Qolaversa, tashrif buyuruvchi ziyyoratchilar dam olishlari uchun mozor oldida Dahbed xiyobonini bunyod ettirib, o'rtasidan o'tgan yo'lning ikki chetiga eman daraxtlari o'tqazilgan. Shuningdek, u yerda tutzor ham barpo ettirgan.

Uning bunyodkorlik ishlaridan yana biri Samarcandda hazrat Xoja Abdiberun mozori ustida keng bir xonaqoh va bir necha hujra qurdirlgan. Bundan tashqari, Nodir mirzo devonbegi buyrug'i bilan Amir Temur maqbarasida ham ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan.

#### 1642-YILI IMOMQULIXON

ukus Nadr Muhammadxon foydasiga taxtdan voz kechib, Makka ziyyoratiga yo'l oladi. Nodir mirzo devonbegi mansabidagi faoliyatini tugatib, unga hamroh bo'ladi. Haj yo'li va amali chog'ida o'zi bilan hamroh bo'lgan turonliklarga barcha yordamni qiladi. Chunonchi, ular orasida bo'lgan hoji Amin o'zi va otasi undan ko'p marhamatlar ko'rganlarini eslaydi.

Haj amalini ado etgan Nodir mirzo devonbegi Imomqulixon bilan bir sanada - 1644-yili 76 yoshida bu yorug' olamni tark etadi.

Xotira aziz, qadr muqaddas

# OTA ME'HRİ

*badia*



Xotira – inson hayotining bir qismi. O'tganlar yodini asragan, ularning ezgu amallarini unutmagan insongina tiriklarning qadriga yetadi. Xotira – bardavom amal. Siz ajdodlaringiz va atrofingizdag'i ulug' insonlar, millat taqdiri bilan bog'liq xotiralarni farzandlaringiz, nabiralariningza yetkazasiz, ular esa o'z avlodlariga meros qilib qoldiradi. Bu o'ziga xos an'ana, qadriyat va ma'naviyatdir. Bu qadriyat negizida esa millat tarixi mujassam. Bir so'z bilan aytganda, xotira va qadr tuyg'usi bor ekan, inson o'zligini, tarixini unutmaydi.



Xotira haqida so'z ketganda, avvalo ko'z oldimda otajonim gavdalanadi. Dadamdan ayrliganimga 19 yil bo'lyapti. U kishi olamdan o'tganda o'zimni irodasiz inson sifatida kashf qilgaman, uzoq payt o'zimga kela olmaganman. Yillar o'tsa-da, dadamni eslamagan, ayrılıq azobidan ko'zimga yosh to'lмаган kun yo'q edi. Dadam yoqtirgan taomlar, sevib eshitadigan qo'shiqlari, do'stu og'aynilari, ularga o'xshash nuroniy chehralar, dono maslahat-u o'gitlari, barcha-barchasi padari buzrukvorimni ko'z oldimda namoyon etaverardi.

Biz oilada 9 farzand voyaga yetganmiz. To'rt o'g'il va besh qiz. O'sha davr nazari bilan qaraganda chiroli ulg'ayganimiz, ya'ni usti but-u, qorni to'q. Vodiying chekka qishlog'ida tug'ilib o'sganimizga qaramay, ota-onamiz barchamizni ziyoli bo'lishimizga zamin yaratdi. Bu otamning til va adabiyot o'qituvchisi, onamning o'qimishli insonlarga hurmati ziyoda ekanidan dalolat edi. Shu o'rinda bizni zahmatli mehnat ila voyaga yetkazgan dadamning bolaligiga qisqacha to'xtalib o'tishni o'rinli deb o'yaylamani.

1932-yil, Rajabgardi qishlog'i. Chechak ofati sabab yaqindagini uch yoshli o'rtanchi o'g'ilchasidan ayrligan Ashirbibining farzand dog'idan ko'ksi azobda. Besh yoshdan oshgan katta o'g'ilchasi Yoqubjon, beshikdagi uch oylik Nosirjonni ham kasallikdan asrashi zarur. Bu ham yetmagandek, necha kundirki, kelbati pahlavondek eri Muhammadyunus qornidagi kuchli og'riq sabab yotib qolgan. Tabiblar chorasiz, yaqinlari qayg'uda. Vujudida kuch yog'ilib turgan navqiron erkakning hayot bilan vidolashishi oson kechmayotgan, jigarları atrofida parvona bo'lib turgan bir pallada Yoqubjon ko'cha darvozasi oldidagi mahalla hovuziga tushib, bir zumda jonsiz holda suv yuzasiga chiqdi. Bir kunda pahlavondek eri va o'g'lidan ayrligan Ashirbibi ko'ksida uch oylik go'dagi bilan hushidan ayrıldi, zabonsiz ayolga aylandi. Lekin shu bir parcha go'dak xonadonning yagona umidi, avlod davomchisi ekanini his qilib turardi u.

Ona-bola hayotidagi og'ir kunlar davomida Nosirjon 17 yoshga to'ldi. Bugun uning nikoh to'yi. Bu kunlarni uzoq, intiq kutgan onaizorning boshi osmonda. Bag'ri kuyuk onasining gapini ikki qila olmagan, bilim olishga ishtiyobiq baland yigitcha esa ayni fursatda o'ninchisinf o'quvchisi. U har kuni 30 kilometr uzoqlikdagi tuman markaziga velosipedda qatnab tahsil olmoqda. Maqsadi – maktab ta'limidan so'ng oliygohda o'qib, muallim bo'lisch. Bu qay darajada zahmatli ekanini oilali bo'layotgan yigitcha yaxshi biladi...

Dadam 40 yildan ziyod vaqt mobaynida o'zbek tili va adabiyot fanidan bolalarga saboq berdi. Meni adabiyotga mehr qo'yib, to'qqiz yoshimdan she'r qoralay boshlaganimda ham, shubhasizki, otamning o'mi beqiyos. Odatda oilamiz a'zolari uyquga kech yotardik. Masalan, biz, bolalar mifik, dala ishlari, oila yumushlaridan so'ng kechga tomon dars qilardik, kitob mutolaasi bilan band bo'lardik. Dadam esa tungi 11-12 larga qadar ertangi kun mifik darsiga tayyorlanardi. Bahordan kuzga qadar esa yarim tundan so'ng bog' va ekinlarimizni sug'orish va o'g'itlash uchun dalaga yo'l olardi. Chunki kunduz kunlari suv tanqisligi sabab buning iloji bo'lmasdi. Bunday paytlarda dadamni qaysi payt uyquga yotganini ko'rmaganman. Albatta, biz, bolalar bu paytda shirin oromda bo'lardik.

Dadam bir paytning o'zida ham ziyyoli, ham bog'bon va dehqon bo'lgan. Bu qattiq mehnatning barchasi nafaqat qornimiz to'q, ustimiz but bo'lishi, balki biz, farzandlarning ziyoli bo'lishimiz, sevgan kasbimizni egallashimiz uchun ham sa'y-harakat edi. Chunki chekka qishloqda voyaga yetayotgan o'g'il-qizlarni viloyat markazi va poytaxtdagi oliygohlarida o'qitishning o'zi bo'lmasdi. Dadamning yoz oylarida biror joyga borib dam olib kelganlarini eslay olmayman. Chunki dasht yerlarda tinimsiz suvga va parvarishga muhtoj ekinlarni hech kimga ishonmasdi. Nega deganda, bir-ikki kunlik qarovsizlik ham bahorda qilgan mehnatlarini yo'qqa chiqarishi bor gap edi. Biroq shunday yoz oylarining birida dadam meni yonlariga chaqirdi.

– Elga taniqli shoira bo'lishni istaysanmi, qizim?

– Albatta, bolalikdan shuni orzu qilaman-ku, dadajon.

– Unday bo'lsa, hamma yozgan she'rlerining to'pla. Tuman, viloyatda she'rlerining chiqqan gazetalar menda turibdi. Hammasini olib, ertaga Toshkentga yo'lda chiqamiz.

– Toshkentga olib borasizmi? – hayratimni yashirmadim.

– Bo'lmasa-chi, hamma katta yozuvchi, shoirlar poytaxtdagi gazeta va jurnallarda ishlaydi. O'shalar bilan seni uchrashtiraman, maslahatlarini olasan. Balki, she'rlerining chiqarishar...

1979-yili she'riy mashqlarimni olib dadam bilan Toshkentga otlandik. Ota-bola besh kun davomida ko'lab

gazeta va jurnal tahririyatlarida, ularda faoliyat yuritayotgan Erkin Vohidov, Oydin Hojiyeva, Xudoyberdi To'xtaboyev, Gulchehra Nurullayeva, Gulchehra Jo'rayeva kabi bir qator elga taniqli shoir va yozuvchilar huzurida bo'ldik. O'sha paytlarda dadamning: "Mening qizimdan ham shoira chiqadimi?" degan savollari hamon qulog'im ostida jaranglaydi. Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidov mashqlarimiga fikr bildirishdan avval dadamga meni poytaxtga olib kelgani, she'riyatga bo'lgan yuksak mehr va hurmati uchun qayta-qayta rahmat aytganini hozirgidek eslayman. Chunki o'sha davrlarda qiz bolaning ziyoli bo'lishi, kelajagi uchun jon kuydirgan otalar sanoqligi edi.

Dadam har bitta yozgan she'rimga e'tibor qaratardi. Gazeta yoki jurnalda she'rim chiqqan kun oilamizda bayram bo'lar, albatta osh damlanardi. Mendan taniqli ijodkor chiqishini orzu qilardi. Ammo mendan dadajonim kutgan shoira chiqmadi. Lekin ijodkor sifatida kimgadir ma'qul kelgan she'riy satrlarim, hikoya va maqolalarim bo'lsa ham bu avvalo otamning xizmati, ezgu-orzularining ne'matidir. Dadam oiladagi o'g'illar qatorida qizlarining ham o'qimishli bo'lishiha katta ahamiyat qaratdi. Menga ham bir necha bor: "Agar yaxshi o'qisang, imtihonlardan o'tishingga ishonsang, Moskvaga o'qishga yuboraman", derdi. Toshkentdag'i oliygohga hujjat topshirganimda hamqishloqlarim ichida qiz bolalardan birinchi bo'lib poytaxtga o'qishga kelganimni eslayman. Baxtg'a qarshi, o'sha yili talaba bo'lisch nasib etmadni. Bu borada ham otam menga katta ruhiy tayanch bo'ldi. Mana shu ulkan mehr

sabab o'zimga bo'lgan ishonch bukilmadi, keyingi yili talabalar qatorida bo'ldim.

Ota-onam barchamizni nafaqat o'qimishli, qolaversa insof-diyonatli, halol va or-nomusli insonlar qatorida bo'lishimiz uchun bor imkoniyatlarini sarf etdi. Avvalo, ularning hayoti, umr yo'llaridagi har bitta amallarining o'zi biz uchun saboq bo'lgan. Bizni oldilariga o'tqazib nasihat qilganlarini eslay olmayman. Biroq qishloqdag'i birorta noqobil farzand haqida so'z ketsa, "ota-onasining boshini egibidi-da" yoki "avlodlarining sha'nini bukibdi" kabi shu qadar ta'sirli fikrlar bildirishar ediki, bu bizga katta saboq bo'lardi.

Dadam bo'ychan, zabardast, o'ta oriyatlari va bir so'zli inson edi. Bizning so'zlashuvimizdan tortib fikrlashimiz, husnixatimizga qadar e'tibor qaratardi. Yodimda, Rossiya harbiy xizmat o'tagan ukamdan ilk maktub keldi. Xatni shoshilib yozgani ko'rinih turardi, ya'ni bir qator imlo xatolardan xoli emasdi. Shunda dadam qizil ruchkada barchasini to'g'rilib chiqdi-da, xatni ukamga qaytarib yuborishimizni, ikkinchi bor bunday xatoga yo'l qo'ymasligini ta'kidladi. Maktabda ham bolalarga qattiqpo'l va talabchanlik bilan saboq berganlarini o'quvchilarini hamon mehr bilan eslaydi. Oilamizdag'i kichik kutubxonada esa mumtoz tarixiy asarlar hamda zamonaviy adapiyotlar saqlanar, ularni navbatli bilan bizga o'qishga berardi. Va albatta, o'qigan kitobimizning mazmun-mohiyati haqida so'rardи. Shuning uchun oilamizdag'i o'g'il-qizlar qaysi bir kasba qiziqmaylik, adapiyotga mehr qo'yib ulg'aydik.

O'ylab qarasam, doimo mehrga intiq qiz farzand uchun otaning o'rnı beqiyos ekan. Bag'rimning butunligi, hayotimning to'kinligi otam bilan ekanini har qadamda his qilib turaman. U kishining aziz xotirasini doimo men bilan yashaydi.

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"



Nazm gulshani



# O'ZBEKNING “KICHKINA SHAHZODA”SI

Gohida ko'ngil hech nimadan malham topolmay, yurakka hech nima sig'may qoladi. O'sha payt u keladi. Baxtingdan dunyolarga sig'may ketasan, quvonchingdan tunning yuzi oqara boshlaydi. Bahorgi yomg'irdek go'zal, tonggi shabadadek yoqimli, bag'riga bir quchoq atirgul to'ldirib keladi u. Qo'lida goh qayg'u, goh muhabbat, sog'inch, umid, baxt quchoqlagan she'r keladi.

Asl ijod ahliga Tangri shunday buyuk bir qudratni bergen – yaratish qudratini. Nazarimda, o'sha to'lg'oqlardan dunyoga kelgan she'rlar shoirning farzandidek...

Ko'pdan beri bir shoir og'amning ijodini kuzataman. Ko'ngli boladek beg'ubor, yozganlari ham hech kimnikiga o'xshamaydigan, yuragim yonbag'irlarida qo'shni bo'lib kun kechiradigan shoir – Muhammadsiddiq Rahmatov ijodiga biroz to'xtalmochiman. Yolg'on so'zlardan xoli, yozganlari samimi, sodda, "men shoirman" degan da'vosi ham yo'q. Ammo kimnidir shoir deyish joiz bo'lsa, beixtiyor Muhammad og'a mayin yomg'irdek shivirlab kelaveradi.

*Kuylaring biram mahzun,  
kuylaring biram og'ir.  
shalabbo bo'lib ketding,  
kel, uymga kir, yomg'ir.*

Qanday odam bu, yomg'irning ko'chada shalabbo bo'lganiga jim qarab turolmaydigan, o'zi yomg'ir bo'lsa-yu, yana shalabbo bo'lsa – qalb ko'zi bilan ko'rish deganlari shu bo'lsa kerak. Toshkentga kelib, ishongan do'stim deganing uyidan bir kecha joy bermagan bu oqibatsiz dunyoda shoir og'am yomg'irga uyidan joy bermoqchi.

*Bandargohga o'xshaysan  
poytaxtda yashasang.  
Jiyalaring kelaveradi  
seni qora tortib.  
Ular kemalarday suzib kelishar,  
Yelkasiga ulkan  
orzular ortib.  
Ularning qollarida chipta,  
yo'l olishgan  
Olis-olisni ko'zlab.  
Tuni bilan yuragingni qon qilishadi,  
Sog'ingan qishlog'ing haqida so'zlab.  
Tongda kuzatasan,*

*uchadi ular,  
Ko'k bag'riga singir  
temir qushlarda.  
Ular ketgan joylar sen uchun orzu,  
Hatto ko'rolmaysan bir bor tushlarda.  
Shalvirab qolasan yana qirg'odqa,  
Hafsalang yo'q, qo'l ishga bormas,  
Shart ketging kelar-u  
baridan kechib,  
Seni dengiz qo'yib yubormas...*

Bu she'r esa yuqoridagi so'zlarimning isboti go'yo. Men boshqada uchratmagan go'zal tashbehtar... Muhammad og'aning she'rlarini o'qiganimda doim bir so'roq yurak-bag'rimni tilkalay boshlaydi: "Nega men yozmadim bu she'rni?! Nega men his qilolmadim bu hodisani?!" Havas bilan hasadning o'tasida muallaq qolib ketgandek bo'laman, lol qolib o'tiraveraman. Shirinlikka to'y may qolgan boladek tamshana boshlayman. Muhammad og'aning she'rlari ham xuddi shunaqa. O'ylab yuraversiz, takrorlab yuraversiz.

*Ho'kizning shoxida,  
dedim, bu zamin,  
So'ng baliq ustida,  
deb bo'ldim amin.  
Ammo bir kun  
yig'laganing bilindi,  
Ko'zlarining ko'rib,  
bag'rim tilindi.  
Shunda bildim  
yolg'on bilganim bari,  
Ko'rdim,  
kipringinda ekan  
Yer shari.*

Ba'zida o'zim sezmagan holda takrorlab qo'yaman mana bu misralarni: "Kipringinda ekan Yer shari". Muhabbatni bu darajada soflik bilan ifoda etish esa faqatgina shoirga xos. Ma'shuqasining ko'zyosh to'kishini istamagan, kipriklari ustida qalqib turgan yosh tomchilarini ko'rganda olam ko'ziga tor bo'lib, butun borliqni esidan chiqarib qo'ygan oshiqning dil izhori bu. Og'amning "Urush odamlari" she'rida shunday misralar bor:

*Bobomning yengiga qarab bilardik,  
Shamol qay tomonidan esayotganin.*

Bola ko'zi bilan boqilgan bu ajoyib misralar bir qo'lidan ayrilgan urush qahramonining dard-u hasratlariga aylanib ketgan. Boshimizga tushgan o'sha og'ir kunlardan so'zlayapti, desam, aslo adashmayman. Ochig'i, lol qolaveraman har safar. Urush haqida katta-katta dostonlar bitilgan, qancha she'rlar, kitoblar bisyor. O'sha butun boshli kitoblardan oladigan taassurotingizni shu ikki misra ko'z oldingizga keltirmadimi? Yuragingizning qaysidir joylarida berkinib yotgan alamli kunlarni, urushda halok bo'lgan, nogiron bo'lib qaytgan ota-bobongizni yoddingiza tushirmadimi? Yana bir she'rda:

*Holimni aytaymi bir jumla bilan:  
To'plarga tutilgan minoradekman.*

Va she'r tugaydi. Buxoroning to'pga tutilgan minorlari yodga tushadi. Oshiq yuragini to'pga tutilishi-chi?..

Muhammad og'ani Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda"sigi o'xshataman. "Bir safar men bir kunda qirq uch marta quyosh botishini tomosha qilganman. Ba'zida yuraging g'ussaga to'lib ketganda botayotgan quyoshga termilib tursang bormi?!" deydi kichkina shahzoda. O'sha payt uni qirq uch marta quyosh botishini tomosha qilishga majbur qilgan narsa yuqoridagi she'rda ham xuddi shunaqa go'zal ifodalangan. She'rda ahvoli yomonligini ifodalash uchun "Men qynalib ketdim, azoblandim", deb o'zini har ko'yga solmaydi shoir, "To'plarga tutilgan minoradekman", deya o'zgacha talqinda ifodalaydi-ko'yadi.

Hozir qo'limda shoir og'amning bir-biridan go'zal yoziqlari – bolalarcha muhabbat bilan kuylangan qo'shiqlari turibdi. Ularni o'qirkaman, bu she'rlar o'z-o'zidan kelmagan, degan o'y keldi. Muhammad og'aning onasi xayolimda jonlandi. Bir suhbatda Muhammad og'a aytilerga bergandi: "Ancha yil she'r yozmay ketdim, yana qo'limga qalam tutishimga bir hodisa sabab bo'ldi. Onam betob edi, kasalxonaga kirishga qo'yishmadi. Urihsam ham, yolvorsam ham, yoniga kiritishmadi. Kasalxona eshigi yoniga o'tirib oldim. Ketishimga ko'zi yetmagan doktor imlab chaqirdi-da: "Onangiz nimanidir pichirlab yotibdi, biz hech tushunmadik", dedi. Shunda palataga kirib, onamning lablariga qulqut tutganimda u bir she'rimni tilidan qo'ymay takrorlayotganini angladim, ko'rdim. Shundan keyin yana she'r yoza boshladim". Og'aning she'r yozmay qo'yishini men hech ham tasavvur qilolmayman. Axir sochidan tirmog'igacha she'r bo'lgan odam she'r yozmay qo'yadimi?! Shundanmi, ona haqidagi eng samimiy she'rlar ham Muhammad og'am ijodida uchraydi:

*Uyga qaytdim,  
sezdirmadim onamga men.  
Onam bog'da chumchuqlarga der edi:  
"Ozroq qolsin, talab ketmang hammasin,  
daydi bolam kelsa, uzib yer edi".*

Aslida, buyuk shoir – onalar! Biz ular aytib bergen, yashab bergen hayotni qog'ozga tushiolsak, katta gap! "Olma tagiga olma tushadi", deganlaridek, bu onadan Muhammad og'aday shoir tug'ilmay, kim tug'ilsin?! Odam ham shuncha xokisor bo'ladi, deysiz og'a bilan ikki og'iz suhbat qursangiz. Hayratidan esa ko'nglingiz dashtlari o't olib ketadi. Bir qushning holiga yig'lagan, bir mushukning sovuqda qayda tunab qolishini o'ylab, uxlolmay chiqqan odam bu dunyoning odami emas. U bizning sayyoraga adashib kelib, qaytib ketolmay qolgan kichkina shahzoda.

Hozir qo'limda Muhammad og'amning bor baxt-u armonlari to'kilgan yoziqlari turibdi. Bu yoziqlar tez orada kitobga aylanish arafasida. Mendek bir havaskorga topshirilgan she'rlarni saralashdek ulug' vazifani suiiste'mol qilib, qayta-qayta o'qishdan nariga o'tolmay o'tiribman.

"Musofir daraxt"ning o'zbek adabiyotida munosib o'rin tutishiga, minglab kitobxonlar qalbidan joy olib, o'z mushtariylarini topishiga ishonaman. Kitobxon sifatida bu kitobni muallifidan ham ko'proq men kutyapman.

**Muhammadali G'AFFOROV,  
"Vatanparvar"**



# 1923-YIL. TURKISTONGA XORIJ DAN 20 TA AEROPLAN – SAMOLYOT KELTIRILDI

XX asrning dastlabki o'n yilliklari jahon ilmiy texnika taraqqiyotida olamshumul kashfiyotlar bilan boshlandi. Falakning po'lat lochinlari hisoblangan samolyotlar ishlab chiqarish, ulardan yo'lovchi tashish va harbiy maqsadlarda foydalanish ham XX asr boshlariiga to'g'ri keldi. Tarixiy manbalar ma'lumotiga ko'ra, samolyotlardan harbiy ehtiyoj uchun ilk marta 1- va 2-Bolqon urushlari davrida (1911–1913) foydalanilgan.

**1920-YIL** 2-sentabrda Buxoro amirligini ag'darishda bolsheviklarga o'sha davrning yangi harbiy texnikasi aeroplan qo'l kelgandi. XX asrda har ikki sohada: ham harbiy, ham fuqarolar havo transportiga oid yuzlab turdag'i samolyotlar yaratildi. Dunyoning barcha qit'alari havo yo'llari orqali bir-biri bilan bog'landi. Yer yuzining turli chekkalaridagi mamlakat fuqarolar havo laynerlari xizmati tufayli bir yurtdan ikkinchisiga qisqa vaqtarda yetib bormoqda.

**BUXORO XALQ SOVET RESPUBLIKASI** hukumati 1920–1924-yillarda ham o'z fuqarolari turmush tarzini yaxshilash, mamlakat miqyosida transport muammosini hal etish, qo'shni va xorijiy davlatlar bilan yaqin aloqalar o'natisht maqsadida o'zining havo flotini yaratish ishiga bel bog'lagandi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, o'sha paytda samolyotsozlik sohasi Angliya va Fransiya mamlakatlari ancha rivojlanib, ularda ishlab chiqarilgan aeroplanlar 100–150 kishi bilan soatiga 120–140 km tezlikda uchardi. Bu aeroplanlar yerga qo'masdan 5 000 chaqirim masofagacha ucha olardi. O'sha davrdanoq Angliya – Hindiston, Angliya – Avstraliya, Angliya – AQSh yo'llarida samolyotlar muntazam qatnab turgan.

**BXSR RAHBARI** Fayzulla Xo'jayev 1923-yilning bahorida Moskvada bo'lib, respublika hududi bo'ylab samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish to'g'risida shartnomaga tuzgan. O'sha yili Rossiya orqali Buxoro Respublikasi, Turkiston ASSR va Xorazm Respublikasiga xorij dan 20 ta samolyot (*aeroplan*) yuborildi. Samolyotlar uchun Rossiya 50 ming oltin so'm miqdorida pay puli berilgan. Aeroplanlar Buxoro shahri Dushanbe (*Sharqiy Buxoro*), Xiva, Toshkent, Olmaota (*Qozog'iston*) bilan bog'lashi kerak edi.

**RESPUBLIKADA** muntazam havo flotini yaratish uchun 3 kishidan iborat komissiya tuziladi. Komissiya zimmasiga respublikaning Eski Buxoro, Kogon, Termiz, Dushanbe, Ko'lob, Qarshi kabi eng muhim shaharlarida aeroport (*qo'nolg'a*) qurish ishini yo'lga qo'yish vazifasi yuklanadi. "Buxoro – Dushanbe havo yo'lini ochish va havo kemalari to'xtayturg'on maydonlar yasamoq uchun Buxoro hukumati 35 ming oltin so'm ajratdi", deyiladi xabarlarning birida. Buxoro Respublikasida 1923-yilda "Havo floti do'stlari jamiyat" tuziladi. Ushbu jamiyatning tashabbusi bilan respublikadagi shirkat va tashkilotlardan,

aholidan havo floti foydasiga yordam pullari to'plangan.

"Nifat" shirkati xizmatchilari havo floti foydasiga 3 078 so'm berdi. Ikki teatr tomoshasidan 18 375 so'm to'plandi. 1923-yil 3-avgust kartinalar namoyishidan 5 802 so'm, xalq o'yinlaridan 4 505 so'm, ot o'yinidan esa 1 425 so'm yig'ildi", deb yoziladi "Buxoro axbori" gazetasining 1923-yil 11-avgustdagi sonida.

**SAMOLYOTLAR** xorijdan olinayotgani va qiymati balandligi uchun respublika hukumati 1923-yil 5-avgustdan 12-avgustgacha "Havo flotiga yordam haftaligi"ni tashkil qilgandi. Haftalik tadbirlarida Buxoro davlatining 5 million aholisi faol qatnashgan. Bir hafta davomida to'plangan ionalar ro'yxati "Buxoro axbori"da to'liq keltirilgan: "Tilla bilan – 235 so'm 50 tiyin; kumush bilan – 233 so'm 25 tiyin; Buxoro oltin tangasi 25 dona, afg'on tangasi 49 dona; ruslarning 1923-yilgi puli bilan – 318 792 so'm to'plandi. Xo'jayi jahon (*hozirgi G'ijduvon tumani*) 20 ming so'm, 160 pud g'alla; Kogon tumani 130 ming Rossiya rubli, tilla bilan – 112 so'm 50 tiyin miqdorida yordam mablag'i to'pladilar". Bu raqamlardan ko'rinish turibdiki, yosh respublika xalqi havo transportini yo'lga qo'yish ishida hukumatni qo'llab-quvvatlagan.

O'z davrining zamonaviy samolyotlariga ega bo'lish orqali Buxoro Respublikasi hukumati moddiy ahvolni yaxshilamoqni maqsad qilgandi.

**"BUXORO AXBORI"NING** XX asr 20-yillardagi sonlarini varaqlar ekanmiz, ajdodlarimiz kelajakka ishonch ruhi bilan qarab, xayrli ishlardan o'z mablag'larini ayamaganiga guvoh bo'lamiz.

Ba'zi kishilar Buxoro Respublikasi hukumatining havo floti tuzishga bog'liq urinishlarini tanqid ostiga olib, "Ko'chalarimiz gor, tosh yotqizilmagan, tevaragimizni o'lim va qabr dunyosi o'rab olgan. Avvalo, avtomobilarning yo'lda yurishi haqida o'ylash kerak" qabilidagi ruhni tushiruvchi fikrlarni aytgan.

To'g'ri, o'sha davrda chet eldan olingen samolyotlar hamisha chidamli va to'la texnik sozlangan holda bo'lmasdi albatta.

**1923-YILDAGI** xabarlardan birida "Yakkatut stansiyasida havoga ko'tarilgan aeroplan motori buzilgang'anlik sababli benzin sovuti portlab olov olg'on va ichidagi uch kishi halok bo'lg'on", deb yozilgandi. Yana bir xabarda esa "Qiziltepa tumanida bir harbiy aeroplondan benzin yonilmagani uchun Vang'oze qishlog'i yaqinida yerga qulag'on", deyilgandi.

**USHBU** fojiali holatlarga qaramay, Buxoro Respublikasi hukumati milliy aviakompaniyani vujudga keltirish uchun katta kuch sarflagan, 1920-yillardayoq samolyotlar qatnovi orqali fuqaro havo transportini yo'lga qo'yishga dadil qadamlar tashlagan edi.

Ajdodlarimizning orzu-umidlari istiqlol tufayli ro'yogha chiqdi. Bugungi kunda respublikamizning o'nlab shaharlari yer yuzidagi yuzlab davlatlarning shaharlari bilan havo yo'llari orqali bog'langan.

**Shodmon HAYITOVA,**  
tarix fanlari doktori.  
**Kamol RAHMONOV,**  
tarix fanlari nomzodi



**Hikoya**

Ota-onamning qabrimni ziyorat qilish uchun qabristonga bordim. Duoyi fotiha o'qib, yon qo'shnimiz Saida xolaning ham qabrimni ziyorat qilib, haqqiga duo qildim. Bolaligimda (1970-yilda) bo'lib o'tgan voqeal o'z o'ngimda kino tasmasiday o'ta boshladi.

# ZOLIMMING JAZOSI



Maktabda o'qish tugab, oxirgi imtihonni topshirib uyga kelsam, onam kasal bo'lib ko'rpa-to'shak qilib yotibdi. Onamning ahvolini ko'rib, juda xafa bo'ldim. Dadam onamni davolatish uchun opam bilan birgalikda shahar kasalxonalaridan biriga olib ketdi. Onamni kasalxonaga joylashtirib, opamni onamga qarash uchun qo'yib keldi. Uyda 5-sinfga o'tgan akam, 3-sinfga o'tgan singlim va olti yashar singlim bilan qoldim. Men o'shanda endigina 4-sinfga o'tgan edim. Dadam ertadan kechgacha zavodda ishlardan edi. Uyda bizga ovqat pishiradigan, kir-chirimizni yuvadigan hech kim yo'q edi. Hamma ish menga qoldi. Suvni oftobda qizdirib, kir yuvardim. Kirlarni siqib yo'yishga qiyalardim. G'o'zapoya yoqib o'choqda ovqat pishirar edim. Faqatgina kartoshka qovurish va mastava pishirishni bilardim. Ba'zan hovlimizda pishgan olma, o'riklarni terib, yeb yotardik. Biznikiga tez-tez kelib, onam bilan choy ichib suhablashib o'tiradigan qishloqdagidagi dugonalari ham kelmay qo'ydi. Birgina yon qo'shnimiz Saida xola holimizdan xabar oladigan bo'ldi.

Bir kuni meni chaqirib:

- Qizim, sen ovqat pishirma, men ovqatni ko'proq qilaman. Sizlarga ham beraman. Onang tuzalib kelguncha biz bormiz-ku, - dedi. Saida xolaning mehr to'la ko'zlariga qarab quvonib ketdim. Shu kundan boshlab har kuni kosalarga ovqat suzib, ikkita non, ba'zan qaynatilgan makkajo'xori olib, biznikiga derazadan uzatar edi. Biz ovqatlanib bo'lgach, idish-tovoqlarni yuvishga qo'ymay, Saida xolaning katta qizi

Mahkamtosh opa yig'ishtirib olib ketar va uyida yuvar edi.

Saida xolaning turmush o'rtog'i Qarshiboy amaki kolxoza traktorchi bo'lib ishlardi. Ertada tongdan traktorini tarillatib kolxoza dalalariga ketar, kechasi soat bir, ikkilarda yana traktorini tarillatib qaytib kelardi.

Saida xolaning katta qizi kolxozung Paxta dalalarida ishlardi. Ularning uylarida televizor, muzlatkich yo'q edi. Ba'zan biznikiga chiqib, televizor ko'rishar edi. Go'shtni yaxshilab tuzlab, oftobda quritib ishlashardi. Onamni sog'insam, singillarni bilan Saida xolanikiga chiqib, kichik qizlari Zulayho, Zubayda bilan "Besh tosh", "Happak" o'ynar edik. Ular qarindoshimizdan ham afzal edi. Saida xola esa o'z xolamdek bo'lib qolgandi.

Onam kasalxonada ikki oy davolanib, sog'ayib keldi. O'sha kuni uyimizda bayram bo'lib ketdi. Onajonimizni rosa sog'inganimiz uchun atrofidan ketmay, pinjiga tiqilib o'tirardik. Saida xolaning qilgan yaxshiliklarini onamga birmabir aytib berdim. Onam Saida xolaga bir kiyimlik mato olib, dasturxon qilib uzatdi.

Bir kuni Saida xola biznikiga kelib, onamga dardihol qildi:

- Oh, kelinjon, esiz, shu Qarshiboy aka bilan o'tgan umrim, o'zim ota-onasiz, yetimlikda o'sganman. Erim pulni juda yaxshi ko'radi. Hovlimizda to'rtta ho'kiz, ikkita sigir, o'n beshta qo'y, yigirmata tovuq, o'nta indyuk bor. Hammasinga bolalarim bilan men qarayman. Qarshiboy akani yig'ib qo'yan puli ham bor, lekin uyga, bolalariga bir so'm

ham ishlatmaydi. Uyimizda na televizor, na muzlatkich bor. Bechora bolalarim ertadan kechgacha mollarni, qo'ylarni boqib keladi. Katta hovli, ekin-tikin qilamiz, lekin rohatlanib yashamaymiz. Hattoki uyga gilam ham olmaydi. Eski sholchalarni tashlab qo'yibman. O'zimiz esa ko'rpa chada emas, po'stak ustida o'tiramiz. Uyga televizor, muzlatkich, gilam olaylik, desam, urib boshimni yordi, - deb boshidan ro'molini oldi. Boshida qotib qolgan qonni ko'rsatdi. Onam jarohatni ko'rib, yig'lab yubordi. - O'zim ham kasalman, ahvolim og'ir. Meni shahar kasalxonalariga olib boring, desam, yo'q, kolxoza kasalxonasida davolan, deydi. Bu yerda apparatlar yo'qda. Bir kuni o'lib qolsam, keyin qadrimni biladi. Bechora qizim Mahkamtosh kolxoza ishlab, sepini qilib to'y bo'ldi. Hattoki qizini ko'rishga ham hech narsa olib bormadi. Nimasini aytay, kelinjon, - deb uh tortdi.

Qishin-yozin oyog'iga kalish kiyib yuradigan, ohori to'kilgan eski ko'ylak va paxtalik nimchasidan boshqa kiyimi yo'q Saida xolaga ich-ichimdan achindim. Qarshiboy amaki ko'zimga zolim bo'lib ko'rindi.

Oradan bir necha oy o'tgach, Saida xola olamdan o'tdi. Xolaning vafotidan so'ng Qarshiboy amaki uylandi. Qishloqda uning xotin olgani tezda ovoza bo'ldi. Men yangi kelinni ko'rish uchun paxsa devorning tirqishidan ularning hovlisiga mo'raladim. Hovlida atlas ko'ylak kiyib yurgan ayol betiga chakka surtib olgani uchun uning haqiqiy yuzini ko'ra olmadim. O'gay ona kelgan zahoti televizor, ro'zg'orga muzlatkich, gilamlar oldiribdi. Shunday

sharoitni Saida xolaga qilib bermagan Qarshiboy amakidan rosa jahlim chiqdi. Bechora Saida xola qanday mehribon ayol edi-ya! To'qqizta farzand katta qilib, rohatini ko'rmay ketdi, deya o'kinardim.

Oradan bir necha oy o'tgach, o'gay onaning hunarları boshlandi. Qarshiboy amakini gah desa qo'liga qo'nadigan qilib oldi. Bolalarning qozon-tovog'ini ajratib berdi. Er-xotin alohida ro'zg'or qilib, yashay boshladi. Bolalarga esa Qarshiboy amakining ukasi bilan yashaydigan onasi kelib, ovqat pishirib, kir-chirlarini yuvardi. Qarshiboy amakining erka xotini har kuni kolxoza do'koniga qatnay boshladi.

Bir kuni maktabdan uyga kelsam, onam dadamga kuyinib gapirayotganini eshitib goldim.

- Eshitdingizmi, dadasi, Qarshiboy amakining xotini kolxz do'konidan rosa oziq-ovqat, kiyim-kechak, matolarni qarzga olib, yetmaganiga uyidagi bor pulini, yangi gilamlarini olib, hech kim yo'qligida qochib ketibdi, - dedi.

Dadam g'azablanib:

- Darhol militsiyaga xabar qilish kerak, - dedi. Onam esa kinoya bilan:

- U ayol rosa pixini yorgan ekan. Yashash manzilini yolg'on bergen ekan. Ism-familiyasini ham o'zgartirib aytgan ekan. Mana endi Qarshiboy amaki uni topa olmayotgan emish. Umas, bumas, Saida xolaning uvoli urdi uni! - dedi.

Men esa bu gapni eshitib, yaxshining qadriga yetmaslikning oqibati bu, degim keldi.

# SOG'LOM TURMUSH TARZI KAFOLATI



Mamlakatni dunyoga tez tanitadigan soha, bu – sport. U millat va irq tanlamaydi, barchani o'z atrofida birlashtiradi. Sport nafaqat aholi salomatligini mustahkamlaydi, balki sog'lom avlodni tarbiyalashning asosiy mezonlaridan biri sanaladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda sport infratuzilmasini rivojlantirish, shu jumladan qishloq va chekka hududlarda sport obyektlarini ko'paytirish, bolalar yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni ommalashtirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirildi.

Ayniqsa, oxirgi yillarda yurtimizda sport sohasiga bo'lgan e'tiboryanada kuchayib, yoshlar, o'smirlar va katta yoshlilar o'rtasida turli sport musobaqlari tashkillashtirib kelinmoqda.

O'tgan davrda yosh sportchilarimiz nafaqat respublika, balki nufuzli sport o'yinlarida, jumladan yozgi Olimpiada va Paralimpiadada, Osiyo o'yinlarida, jahon va mintaqal chempionatlarida faxrlı o'rirlarni egallab kelmoqda.

Bu hali hammasi emas. Hozirgi kunda O'zbekiston boks, shaxmat, dzyudo, kurash, og'ir va yengil atletika sport turlari bo'yicha dunyo mamlakatlari yetakchilari safida bormoqda. Sohaga qaratilayotgan yuksak e'tibor natijasida sportchilarimiz xalqaro musobaqalarda yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy sportchilarini ham nafaqat mamlakat mudofaa qobiliyatiga, balki jismoniy tarbiya va sportning rivojiga ham katta hissa qo'shib kelmoqda.

Mudofaa vazirligi harbiy sportchilarining faoliyati O'zbekistonning jahon miqyosidagi nufuzini oshirishga, ularning sportdagи yutuqlari yosh avlod ongida Vatanga sadoqat va intizomililik kabi qadriyatlarni shakllantiradi.

2024-yili Mudofaa vazirligi terma jamoasi sohadagi yutuqlari O'zbekistonning sport maydonidagi nufuzini yanada mustahkamladi. O'tgan bir yil mobaynida terma jamoa vakillari 623 ta medalga egalik qilgan bo'lsa, shulardan 257 tasi xalqaro (101 ta oltin, 86 ta kumush va 60 ta bronza) va 366 tasi respublika miqyosidagi (161 ta oltin, 112 ta kumush va 93 ta bronza) musobaqalarda qo'lga kiritildi. Sportchilarning bu kabi yutuqlariga davlatimiz tomonidan ham alohida e'tibor qaratilib, harbiy sportchilar qimmat baho sovg'a va davlat mukofotlari bilan rag'batlantirildi.

Albatta, bunday natijalar o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q. Bu mamlakatimizning jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga davlat siyosati darajasida katta e'tibor qaratayotgani samarasidir. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida bu boradagi ishlar ko'lamini kengaytirish maqsadida jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar sonini ko'paytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

**Sherzod  
EGAMBERDIYEV,  
"Vatanparvar"**

# "USTOZ-SHOGIRD" AN'ANASI:

*Xadicha Sulaymonova va Mamlakat Vosiqova misolida*



O'zbekiston tarixida o'zining jasorati, ilmiy tafakkuri va adolatparvarligi bilan o'chmas iz qoldirgan siymolar orasida Xadicha Sulaymonova yorqin yulduz misolidir. U nafaqat yuridik sohaning zabardast yetakchisi, balki jamiyatni o'zgartirishga, ayollarning huquqlarini kengaytirishga ulkan hissa qo'shgan inson sifatida tanilgan.

1913-yil 3-iyun kuni ziyorolar oilasida dunyoga kelgan Xadicha Sulaymonova yoshligidan o'tkir zehn, keng qiziqish va bilimga chanqoqligi bilan ajralib turgan. Xadicha opa o'zining huquqshunoslik ilmida qoldirgan merozi orqali jamiyatni adolatga, qonun ustuvorligiga chorlashda beqiyos rol o'yndi. Uning "O'zbekiston Sovet davlati va huquqi tarixi" asari bu sohadagi ilk jiddiy tadqiqotlardan biri

sifatida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Sulaymonova nafaqat yuksak ilmiy salohiyatga ega bo'lgan olima, balki jamiyatning yetakchi arbobi sifatida ham tanilgan. Uning yurist sifatida olib borgan ishlari va huquqiy adabiyotlarga bag'ishlangan asarlari yillar davomida minglab yuristlar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Shunday zalvarli yillarda jamiyatda yana bir ilmga, o'qishga chanqoq talaba -



Mamlakat Vosiqova ham ilm olish pillapoyalaridan bosqichma-bosqich o'tib kelayotgan edi. Uning faoliyati davomida O'zbekiston adliya tizimini isloq qilish, qonunlarni xalq hayotiga moslashtirish va milliy huquqiy adabiyotni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirgan ishlari yuqori baholanadi. Mamlakat Vosiqova fidoy shogird va yetuk olima edi.

O'zbekiston tarixi ko'plab fidoyi olimlar, huquqshunoslar va jamoat arboblarini yetishtirgan. Ular orasida Xadicha Sulaymonova va uning shogirdi Mamlakat Vosiqova alohida o'rın tutadi. Mamlakat Vosiqovaga ilmiy ish ustida izlanish olib borayotgan, bu ilmiy ishni tekshirib, kamchiliklarini to'ldiragan, to'g'ri yo'lni ko'rsatadigan muallim zarur edi va Mamlakat Vosiqova Xadicha Sulaymonovadek bo'lishga harakat qilayotgan, uni o'z ustoz, ilmiy rahbari sifatida tasavvur qilar edi. Bir kuni Vosiqova Xadicha

opani oldiga borib, ilmiy ishi va yozgan maqolalarini tekshirib berishini so'raydi. Oldiga kelgan hech bir talabani qaytarib yubormagan Xadicha opa Mamlakat Vosiqovani ham qaytarmasdan, yozgan ishlarini ko'rib beradi. Shu ondan boshlab ularda ustoz-shogird an'anasi boshlanadi. Xadicha Sulaymonovaning shogirdi Mamlakat Vosiqova uning yo'lini davom ettirgan, ilmiy va amaliy huquqshunoslik sohasida yangi sahilalarini ochgan olimadir.

Mamlakat Vosiqova adliya vaziri o'rinosari lavozimiga tayinlanganidan 4 yil o'tib, Xadicha Sulaymonova adliya vaziri lavozimiga tayinlanadi. Endilikda Xadicha Sulaymonova Mamlakat Vosiqovaga nafaqat ustoz, balki ishda ham maslak rahbar vazifasiga keladi. Va bu ikki ayol rahbarligida vazirlik faoliyati yanada rivojlanadi. Xadicha Sulaymonova va Mamlakat Vosiqova o'rtasidagi ustoz-shogird munosabatlari ilmiy



maktablari uchun ham ibratdir. Bu aloqalar faqat ilmiy sohada emas, balki millatning ma'naviy rivoji uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo'ldi.

Sulaymonova va Vosiqova kabi fidoyi olimlarning hayoti va faoliyati shuni ko'rsatadiki, ustoz va shogird munosabatlari chin dildan mehnat qilgan taqdirda buyuk natijalar olib kelishi mumkin. Ularning o'rtasidagi aloqalar bugungi kun yuridik soha vakillari uchun ham katta ibratdir. Bu ikki buyuk ayolning xotirasi va merosi avlodlar qalbida yashashda davom etadi. Bu ustoz-shogird nafaqat o'z zamonasining yorqin yulduzları bo'lib, balki millat ravnaqи uchun bebahо xizmat qilgan. Ularning o'zaro aloqalari va ilmiy-ma'rifiy sohada qoldirgan izlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qtmaydi.

**Laziza AMIROVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi**

## Uchrashuv

# YOSHLAR XAVFSIZLIGI – JAMIYAT FAROVONLIGINING ASOSI

Termiz davlat universitetida ijara xonadonlarida yashayotgan talabalar ishtirokida huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari bilan profilaktik uchrashuv tashkil etildi. Tadbirning asosiy maqsadi yoshlarning tungi vaqtarda besamar ko'chada yurishing oldini olish, ularning xavfsizligini ta'minlash va qonun-qoidalarga rioxal qilish muhimligini tushuntirishdan iborat bo'ldi.

Uchrashuvda huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillari, universitet mutasaddilari hamda fakultet tyutorlari ishtirok etib, talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Tadbir davomida yoshlarning tungi vaqtarda nazoratsiz holda yurishi turli xavf-xatarlarga olib kelishi mumkinligi ta'kidlandi. Shu bilan birga, huquq-tartibot organlari tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirilar haqidagi ma'lumot berildi.

Huquq-tartibot organlari xodimlari talabalarini o'z huquqlari va majburiyatlarini bilishga, qonunlarga rioxal qilishga va jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qilishga chaqirdi. Tadbir davomida jinoyatchilikning, narkotik moddalar tarqalishiga qarshi kurash va nosog'lom turmush tarzining oldini olish bo'yicha dolzarb tavsiyalar berildi.

Uchrashuv davomida ijara xonadonlarida yashayotgan talabalar huquqlari va majburiyatlarini yuzasidan ham muhim ma'lumotlar taqdim etildi. Ular xonadon egasi bilan rasmiy shartnomalari tuzishi, mahalla faollari va uchastka nozirlari bilan hamkorlik qilishi, turarjoy hududida tartib-intizomga rioxal qilishlari lozimligi qayd etildi.

Tadbir yakunida talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollarni berib, huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillaridan tegishli javob va tavsiyalar oldi.

Uchrashuv ishtirokchilariga maxsus eslatmalar va xavfsizlik qoidalari aks etgan bukletlar tarqatildi.

**Jamshid NAZAROV,  
Termiz davlat universiteti  
O'zbek filologiyasi fakulteti tyutori**



# BOZOR QAYTGAN MAHAL

Erta turishga odatlanganman. Savdoda ishlab o'rganib qolganman. Bolalarim ulg'ayib, qo'limdan ishimni oldi. Uyda bekor o'tirish menga emas ekan. Oshxona ishlari, supur-sidir kelindan ortmaydi. O'zimni biror foydali ishga band qilishim kerak. O'yab-o'yab qo'y boqishga qaror qildim. Hovlimiz katta, bog' etagidan qo'ra qilib, ko'chaga eshik ochtirsam bo'ldi. Temiryo'lidan narisi keng dala. Uch-to'rtta qo'yga yo'l yoqalaridagi o't-o'lan ham kifoya qiladi.

Qo'ylarim ko'paygani sari bu ish menga yoqib goldi. Bahonada tong sahar chiqib, oyoq chigiling yoziladi, o'zingga o'xshab qariganida ham uyda o'tirolmaydigan dugonalar topasan.

Kengliklar yaxshi ekan, allaqanday xotirjam tortib qoldim. Irg'aylidan Salima opa bilan birga suruv haydaymiz. Endi, juda katta suruv bo'lmasa ham ikkimizning qo'ylarimiz qo'shilganida o'ndan oshib ketadi. Opani yoshligimdan taniyman. U yashaydigan Irg'ayli bozorning biqinidagi mahalla. Xudoning bergen kuni bozor qaytgan mahalda opa zambilg'altagini sudrab kelardi. Bu vaqtida dehqonlar sotadiganini sotib, qolganini arzon-garov berib yuboradilar. Opa shu fursatdan unumli foydalanan edi. Pishiqlik pallasi emasmi, zambilg'altak to'lib-toshib ketardi. Ovi baroridan kelgan ovchidek mammunlik bilan og'ir aravani sudrab, uyiga qaytardi.

Bir kuni chidolmay so'rading:

- Opa, yuelingiz juda og'ir-eyy, har kuni shunday qatnaysiz, shuning hammasi bir kunda yeyiladimi?

- Uyingda to'qqizta yeyarmanicharmaning bo'lganida, bu savolni bermas eding. Yeyiladi, bola-baqradan ortgani qo'ylargaga tayyor yem. Senga

o'xshagan oqbilak oyim bularni qaydan bilardi? Yukim og'ir bo'lsa, seni yelkangga ortyapmanmi?

Savol berganimga pushaymon bo'ldim. Menga nima edi? O'lgudek tili zahar-eyy... Oqbilak oyim deydimi? Savdo ishi ham oson emas. O'zi bu opaga bir gap aytish kera-gu, qochish kerak. Shu paytgacha salom-alikdan nariga o'tmagan odam, bu gal ham shu yo'lni tutib ketaversam bo'lardiku? Tili achchiq, gap kelganida, hech kimni ayamaydigan, pardasiz maqollarni ham bemalol aytadigan bu ayolning eri uning tamoman aksi edi. Qo'ydek yuvosh, erta-yu kech toat-ibodatda bu odam uning achchiq gaplarini yumshatish uchunmi Salima opaga "Shukurjonning onasi" deya gиргитон bo'lardi. Qiziq tonomi shundaki, ikkisi ikki olam bo'lgan bu insonlarning o'zaro janjalini birov ko'rgan, yo'eshitgan emas.

Shu to'rtta qo'yning bahonasida opa bilan dugona bo'lib qoldik. U aslida men o'ylagandek dilozor emas ekan. Qog'ozga o'rabi gapireshni bilmaydigan, xushomaddan yiroq, achchiq bo'lsa ham rostini aytib qo'yaveradigan odam ekan. Yetmish yoshida ham nigohlari o'tkir, suhbatsoshining ko'zlariga tik qarab gapiradigan, yurishlari ildam, keksalikka

bo'y bermay kelayotgan tik qomatli bu ayolni hatto yoqtirib qoldim.

Bahor kunlari edi. Birpasda havoni bulut qopladi. Yomg'ir sevalay boshladи.

- Opa, uyga qaytaylik, bo'lmasa yomg'irda qolamiz, - dedim.

- Bahor yomg'iri birpasda yog'ib o'tib ketadi, kesak emassanki erib ketsang, - dedi quruqqina qolib Salima opa. - Yomg'irda qolishni xohlamasang, ketaver, qo'ylaringga o'zim qarayman.

O'ziga bildirmay sekin yuz-ko'zlariga razm soldim. Ko'zlar kirtayib qolgandek tuyuldi. Qandaydir mashqi past.

- Shamollab qolmaylik dedim-da, - deb ro'molimni boshqatdan tang'ib oldim, nimchamni tugmalarini qadab, ikkilanib orqamga bir qarab oldim.

- Sen ketaver, men o'rganib qolganman, - dedi kampir nomalum tomonga tikilib.

Tovushi titragandek eshitildi. Yaqinroq bordim. Yuzlari ho'li.

- Opa, yig'layapsizmi?

- Yo'o'q, yo-yomg'irdan...

- Nima bo'ldi? Birov xafa qildimi?

- Nima ishing bor, - dedi jahl bilan,

- ket degandan keyin ketavermaysanmi?

Shunday dedi-yu, qari tut tagidagi yo'g'on quruq ildizga o'tirib, baralla yig'lab yubordi. Nima qolishni bilmay yoniga o'tirdim. So'z qotmadim. Birozdan so'ng o'zini tutib, gapira boshladи:

- Qushlarga hech e'tibor berganmis?

Palaponlariga yemish tashigan qushlarga? Palaponlar hech to'ymaydi, og'zilarini katta-katta ochib, yemish so'rab chig'illaydi. Men o'sha qushlar kabi bo'ldim. Nima topsam, uyga, bolalarimga tashidim. Uyda o'n bir jon... Yeyish-ichish, kiyim-kechak... O'qitdim, uylantirdim, qizlarni uzatdim. Farzandlar ko'rganida ularning yonida edim, kir-chiri, issig'idan xabardor bo'ldim. Hech bir minnatsiz, ta'masiz yelib-yugurdim. Kecha qizlarim keldi. Go'sht dimlashibdi. Yog'liroq ekan, yeya olmadim. Qizim: "Ena, shunaqa

ovqatlarni xush ko'rib yer edingiz, nega yemayapsiz? Siz uchun pishirdik", dedi. "Endi qarichilikmi, yeyolmay qolganman, yoshlikda ekan, g'o'rami-sho'rami yeb ketaverar edim", desam, o'rtancha o'g'lim Said: "Qo'ysangiz-chi, ena, yaxshi yeysiz-ku, siz bir o'tirib yegan ovqatni dugonangiz Rohat momo olti oy yeydi", desa bo'ladimi. Uncha-muncha gaplarga parvo qilmayman ammo... uning gapi yuragimni teshvoray dedi. Kechadan beri qulog'imdan ketmayapti. Ko'p ovqat yeymanmi? Hamma qatori nafsimga yarashasini yeyman. Demak, yegan ovqatim ularga malol kelyapti.

- Unday demang, opa, o'zi shu o'g'lingiz sal farosatsizroq, hazillashmoqchi bo'lgandir, sizga og'ir botadi, deb o'yilamanan-da, - dedim yupatishga harakat qilib.

- Dasturxon atrofida o'tirgan o'g'illarim, qizlarimdan birovi "Hoy, sen nega bunday deysan, rizqini sen beryapsanmi?" demadi. Bolalarim yaxshi yesin, ichsin deb tinmadim, hech malol

kelmabdi, charchadim demadim. Talashib-tortishib yeganlarida sevindim, minnat xayolimda ham yo'q edi. Tansiqroq taom bo'lsa, darhol qo'limni tortar edim, avval bolalarim to'ysin, menga qolgan-qutgani ham bo'laveradi, deb qanoat qilganman. Bugunlar... yemagim ularga malol ekan. Aslida hech kimga og'irim tushmagan, tushmaydi. Agar o'lib qolguday bo'lsam ham, mana shu qo'ylarim meni tuproqqa beminnat qo'yish uchun yetadi. Ma'rakalarimni ham obod qiladi. O'g'il-qizimga og'irim tushmaydi. Bolangdan hazil bo'lsa ham bunday ta'na eshitish og'ir ekan.

Hech narsa deya olmadim. Uning zambilg'altak tortib ketayotganiga necha bor guvoh bo'lganman axir. O'ydim-chuqurlarda, eski temiryo'lidan qora terga tushib arava sudrab kelayotgan ayol... Aravasida biroz uringan-suringan mevalar, qovun-tarvuz, sabzavotlar liq to'la. Aravaning g'iyqillagan ovozi ham uyga-uyga degandek ayolning o'ylari bilan hamohang edi.

\*\*\*

Aziz o'quvchi, sizning-chi, sizning onangiz qancha ovqat yeydi? Dugonalaridan ko'p yeydimi? Kammi? Istaklari bilan qiziqqanmisiz? Ko'ngliga nima yoqishini so'raganmisiz? Qachon? Onangizga hazil qilasizmi? Hazilda ham had borligini-chi, bilasizmi?

Husayn Voiz Koshifydan o'qigan edim, mazmuni shunday edi: "Onam bilan bir dasturxonada o'tirib ovqatlanishdan o'zimni tortaman. Qo'rquamanki dasturxonadagi uning ko'ziga totli ko'rинган, yegisi kelgan narsani undan avval men olib yeb qo'ysam..."

Onalarga go'zal so'zlar so'zlang, qaltis hazillardan tiyiling, yemaklarning eng yaxshisi deb bilganingizni ilining!



## Korrupsiya va giyohvandlik – davr muammosi

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari akademiyasida "Korrupsiya – taraqqiyotga tahdid" va "Giyohvandlik – davr muammosi" mavzularida profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, Mudofaa vazirligi korrupsiyaga qarshi nazorat bo'limi mas'ullari hamda Qurolli Kuchlar akademiyasi professor-o'qituvchilari, kursantlar ishtirok etdi.

So'z olganlar giyohvandlikka qarshi kurashish faqat davlat tashkilotlarining vazifasi emasligi, buning uchun har bir fuqaro, ota-onva jamoatchilik ham mas'ulligi, eng muhimi, har bir inson giyohvandlikning oqibatlarini yaxshi anglab, unga qarshi birqalikda kurashishi kerakligi tushuntirildi.

Shuningdek, korrupsiya illati, uning ko'rinishlari, bu bilan bog'liq jinoyatlar va javobgarlik masalalari haqida tushuntirishlar berildi.

Mavzularga doir namoyish etilgan videoroliklar barchani yanada hushyorlikka undadi.

Adliya podpolkovnigi

Botir SOBIROV,

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

### Harbiy prokuror kubogi



## Musobaqalarda mahorat sinaldi

Harbiy prokuratura organlari tomonidan yoshlar o'rtasida sportning milliy kurash turini keng ommalashtirish borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

## Vatanparvarlik sayli

Guliston harbiy prokururasiga biriktirilgan Toshkent viloyati Bekobod tumanining olis Achamayli mahallasida yashovchi yoshlar va hududdagi 48-umumta'lim maktabi o'quvchilari ishtirokida vatanparvarlik tadbiri o'tkazildi.

Tadbir yoshlarning O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlaridagi qadimiy an'analar va buyuk ajodolarimiz siyosini gavdalantirib berishlari bilan yanada qiziq bo'ldi.

Jarayonda o'quvchi-yoshlar o'zlarini tayyorlagan va ijro etgan kuy-ko'shiqlar hamda badiiy chiqishlar bilan barchaga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Yakunda o'qituvchilar va tadbirda faol ishtirok etgan yoshlar kitoblar to'plami bilan taqdirlandi.

Adliya podpolkovnigi

Farrux DJUMAYEV,

Guliston harbiy prokurori

## Murojaatlar o'z yechimini topmoqda

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokururasiga tomonidan Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari bilan hamkorlikda mamlakatimizning olis hududlarida ommaviy sayyor qabullar o'tkazish izchil davom ettirilmoqda.

Ularning galdagisi Navoiy viloyatining olis hududidagi Uchquduq tumanida tashkil etildi.

Unda Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va xodimlari, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Jarayonda jami 42 ta murojaatdan 12 tasi qanoatlantirildi, 16 tasi yuzasidan tushuntirish berildi, 14 tasining ijrosi nazoratga olindi.

Adliya podpolkovnigi  
Gulchehra TURSUNOVA,  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi

### Inson qadri uchun



Toshkent harbiy prokururasiga tomonidan okrug qo'shinlari qo'mondonligi bilan hamkorlikda Angren shahrida ommaviy sayyor qabul tashkil etildi.

Unda dastlab "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonun mazmun-mohiyati tushuntirilib, so'ngra harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari tinglandi.

Jami 14 ta murojaatdan 1 tasi ijobji hal etildi, 5 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish berildi, 8 tasi nazoratga olindi.

Ayni jarayonda tashkil etilgan mehnat yarmarkasida esa harbiy xizmatchilarning band bo'lмаган oila a'zoliga korxona va tashkilotlarning bo'sh ish o'rinnari taklif etildi.

Shuningdek, Toshkent shahri favqulodda vaziyatlar boshqarmasi va uning hududiy bo'limlarida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari ishtirokida ochiq muloqot o'tkazildi.

Unda korrupsiya va u bilan bog'liq jinoyatlar, ularga qarshi kurashish hamda bu boradagi vazifalar haqida tushunchalar berildi.

Adliya mayor  
Oybek ARIPBAYEV,  
Toshkent harbiy prokurorining yordamchisi

Adliya mayor  
Ozod BAXRONOV,  
Qarshi harbiy prokurorining o'rinosari

## Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida



# **SPORTNI OMMALASHTIRISH YO'LIDA**

Keyingi yillarda  
O'zbekiston Respublikasi  
mudofaasiga ko'maklashuvchi  
"Vatanparvar" tashkilotining  
Qashqadaryo viloyati  
kengashi hamda viloyat  
texnik va amaliy sport turlari  
nodavlat ta'lim muassasasi  
tomonidan vohada sportni  
yanada rivojlantirish, uning  
ommaviyiligin oshirish  
borasida izchil sa'y-harakatlar  
olib borilmogda.

Xususan, sport seksiyalari faoliyatini, ularning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash, zamonaviy anjom va jihozlar bilan ta'minlash hamda yoshlarni seksiyalarga kengroq jalb qilish kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunga kelib yoshlar "Vatanparvar" tashkilotining viloyat kengashi tizimidagi barcha tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgibiatlon", "Duathlon", "Triatlon", "Karting", "Aviamodel", "Raketamodel", "Avtokross", "Motokross", "Parashyut" va "Radiosport" kabi seksiya va to'garaklarda katta qiziqish va ishtiyoq bilan mutazam shug'ullanib kelmoqda. O'z navbatida, mashg'ulotlardan tashqari, belgilangan reja asosida uyushtirilayotgan musobaqlar sportchi yoshlarning tajriba va mahoratlarini maromiga yetkazishga xizmat qilmoqda.

- Sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirdiralar kalendar rejasiga asosan viloyat terma jamoasining tizim tashkilotlari bo'yicha o'tkaziladigan respublika miqyosidagi musobaqalarda muvaffaqiyatlari ishtiroki ta'minlanmoqda, - deydi muassasa direktori Diyorbek Komilov. - Bu musobaqalarda yuz nafardan ziyod iqtidorli sportchimiz o'z mahoratlarini namoyish etadir. Shuningdek viloyat



kubogi, championat va birinchiliklarda 500 nafar o'g'il-qizlarimiz qatnashib, tegishli me'vor falablarini bajaradilar.

Joriy yilda ham viloyatimiz ko'plab nufuzli musobaqalarga mezbonlik qiladi. Masalan, "Duatlon" sport turi bo'yicha respublika miqyosida sport musobaqasi o'tkaziladi. Ayni paytda viloyat terma jamoasining bir qancha a'zolari respublika miqyosida o'tkaziladigan nufuzli musobaqalarda muvaffaqiyatlari ishtirok etib, faxrli o'rnlarni egallab kelmoqda. Chunonchi, muassasamizning yozgi biatlon ustalari Ahmad Bo'riev, Malika Toshpo'latova, Nadejda Proshena hamda triatlonchilardan Sarvinozbegim O'rınboyeva va Shahboz Rahimovlar O'zbekiston terma jamoasi safida bir necha bor nufuzli musobaqalarda g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Shu kunlarda ham viloyatimiz sportchilari orasida respublika musobaqalarining ko'plab g'olib va sovrendorlari yetishib chiqmoqda. Ular respublika championati birichiligi hamda kubogi musobaqalarida viloyatimiz sharafini munosib himoya qilmoqdalar. Belgilangan rejaga muvofiq bir necha bor "Havo miltig"idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon", "Karting" bo'yicha viloyat musobaqalari o'tkazildi.

Ayni paytda muassasada nafaqat sport turlarini rivojlantirish, balki yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash hamda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shu kunlarda bu yerda "A", "B", "BC", "BE", "CE" va "D" toifali haydovchi mutaxassislar tayyorlanmoqda. Buning uchun tashkilot yetarli o'quv-moddiy bazaga ega. Barcha kerakli texnik qurilmalar hamda avtotransport vositalari bilan ta'minlangan. Shuningdek, yoshlarni ona Vatanga sadoqatli farzandlar sifatida tarbiyalash borasida viloyat mudofaa ishlari, maktabgacha va mакtab ta'limi, Yoshlar ishlari agentligi boshqarmalari va harbiy qismlar bilan hamkorlikda belgilangan reja asosida turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

Akbar ALLAMUBODOV



## Talabalar bahori – 2025

Xorazm viloyati hokimligining tashabbusi bilan viloyatdagi oliy ta'lim muassasasi yoshlari o'rtaida "Talabalar bahori – 2025" haftaligi doirasida Urganch garnizonidagi harbiy qismlardan birida viloyat hokimi kubogi uchun "Shunqorlar" harbiy-vatanparvarlik musobaqasi o'tkazildi.

# YOSHLAR HARBIY-VATANPARVARLIK musobaqasida uchrashdi



Viloyat hokimligi, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi, mudofaa ishlari va sport boshqarmalari, Yoshlar ittifoqi bo'limi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining hududiy boshqarmasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan musobaqa yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarishga ko'maklashish, shuningdek sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga xizmat qildi.


Bellashuvda viloyatdagi 7 ta oliy o'quv yurtidan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan talabalar ishtirok etib, g'alaba uchun kuchli kurash olib bordi. Har bir jamoaning 10 nafar a'zosidan 8 nafari o'g'il bola hamda 2 nafari qiz boladan iborat bo'lib, 6 ta shart bo'yicha o'zaro kuch sinashdi.

Dastlab talabalar jamoaviy tarzda safda shaxdam yurib, saf qo'shiqlarini ijro etdi. Ikkinci shartda ishtirokchi jamoalardan bir nafardan o'g'il va qiz bolalar qatnashib, pnevmatik miltiqdan nishonga o'q uzdi. Uchinchi shart bo'yicha jamoalarning ikki nafar o'g'il bola a'zosi granatani uzoqqa uloqtirishda bellashdi. "Harbiylashtirilgan estafeta" shartida har jamoadan uch nafardan o'g'il bola avtomatni noto'liq qismalgara ajratish va yig'ish, gazga qarshi niqobni kiyib yugurishi belgilangan. Keyingi shartlarda jamoalar 100 metr masofaga yugurish hamda turnikda tortilishda o'zaro bahslashdi.

Qizg'in va murosasiz kechgan harbiy-sport musobaqasi shartlariga ko'ra, faxrli 1-o'rin Urganch davlat pedagogika instituti jamoasiga nasib etdi. Ikkinci o'ringa Urganch davlat universiteti hamda 3-o'ringa Urganch innovatsion universiteti jamoalari munosib topildi.

G'olib va sovrindorlar tashkilotchilar tomonidan diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirdandi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy  
okrug matbuot xizmati**



## O'TKIR ZOTILJAM KASALLIGI PROFILAKTIKASI

kasallikka qarshi emlash asosiy o'rinni tutadi. Hozirgi kunda milliy emlash kalendari asosan, chaqaloqlarni 2 va 3 oyligida hamda 1 yoshga to'lganda emlash yo'liga qo'yilgan bo'lib, uning samarasi tufayli chaqaloqlar orasida zotiljam tufayli o'lim darajasining keskin kamayishiga erishildi.

Immunitetni oshirish uchun to'g'ri ovqatlanish, mevasbavotlarga boy bo'lgan ovqatlarni iste'mol qilish, vitamin va mineral komplekslarini qabul qilish orqali infektsiyalarga qarshi chidamlilikni oshirish mumkin.

Kun tarbitiga rioya etish, jismoniy mashg'ulotlar, toza havoda sayr qilish, ish joylarida va umumiy yotoqxonalarda havo hajmining yetarli bo'lishi, yotoqxonalarda toza havo va namlik darajasi me'yorda bo'lishi lozim, chunki xona havosining yuqori darajada namligi mikroorganizmlarning ko'payishiga olib keladi, namlik darajasining pastligi natijasida allergik kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Gripp yoki boshqa o'tkir respirator kasalliklardan saqlanish lozim. Buning uchun bemorlarni o'z vaqtida alohidatalash, niqob taqish, ommaviy yig'ilishlarni cheklash, sovuqqotishdan saqlanish, mutazam tibbiy ko'rikлarni tashkil etish talab etiladi.

**Tibbiy xizmat katta leytenant F. NIYOZOV,  
Qurolli Kuchlar xizmatchisi B. AXMEDOV,  
Mudofaa vazirligi  
Sanitariya-epidemiologiya  
nazorati markazi mutaxassislari**

O'tkir zotiljam kasalligi o'pka to'qimalarini o'tkir yallig'lanishi bilan kechuvchi, o'pkaning bir bo'lagini yoki butunlay qamrab oluvchi, ba'zi hollarda og'ir kechuvchi kasallikdir. Zotiljam kasalligini ko'pincha "pnevmodokklar" deb ataluvchi bakteriyalar chaqiradi, shuning uchun tibbiyotda pnevmoniya kasalligi deyiladi, lekin zotiljam kasalligini viruslar, stafilokokklar, ichak tayoqchalari va mikoplazmalar ham keltirib chiqarishi mumkin.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida O'zbekiston Respublikasi aholisi orasida pnevmodokklar chaqirgan zotiljam kasalligining ortishi kuzatilgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida shu kunlarda mikoplazmalar keltirib chiqaruvchi zotiljam kasalligining keskin ortishi kuzatilib, og'ir asoratlar bilan o'tmoqda.

Ko'pincha pnevmodokklar havodagi tomchilar orqali yuqadi. Kasallangan kishi aksirganda yoki yo'talganida qo'zg'atuvchilar havo orqali sog'lom kishilarga o'tishi mumkin. Bu kasallik jamoat joylarida tez tarqaladi. Shuning uchun uyushgan jamoalarda ehtiyyot choralarini ko'rish juda muhim. O'tkir zotiljam kasalligi ko'pincha shamolla shakalliklari (gripp, paragripp, adenoviruslar, respirator-sinsital viruslar, rinoviruslar, koronavirus infektsiyasi va boshqa)ning asorati sifatida rivojlanadi. Immuniteti past bo'lganlarda, tana vazni kam bo'lganlarda, kuchli sovuqqotish oqibatida ham o'tkir zotiljam rivojlanishi kuzatiladi.

O'tkir zotiljam kasalligining dolzarbligi, kasallikdan keyingi asoratlarning hamda kasallik tufayli o'lim darajasining yuqoriligi bilan belgilanadi. Aholining o'limi sabablari

orasida o'tkir zotiljam kasalligi, yurak qon-tomir kasalliklari, xavfli o'smalar, o'tkir travma va zaharlanishdan keyin to'rtinch o'rinda turadi.

Kasallik qo'zg'atuvchilar niyas yoki qon orgali o'pka to'qimasiga o'tib yallig'lanish o'choqlarini paydo qiladi. Bu esa o'z navbatida, o'pkada havo o'tish yo'llarini torayishiga, bu qondagi kislror miqdorining kamayishiga olib keladi. Qonda kislror miqdori kamayib korbonat angidrid gazining miqdori ortishi hisobiga markaziy asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib nafas yetishmovchiligi, organizmda muddalar almashinuv, markaziy asab tizimi, yurak qon-tomir tizimi, buyrak va jigar faoliyatining buzilishiga olib keladi.

Kasallik qancha tez aniqlanib, davo choralarini tez boshlansa, samara shuncha yaxshi bo'ladi. Bemor ko'proq suyuqlik ichishi kerak. Agar bemor ko'p terlasa ichki kiyimlarini tez-tez almashtirish lozim. Shifokorga kech murojaat etishi va pirovardiga yetkazib davolanmasligi zotiljamning og'irlashuviga sabab bo'ladi.

Zotiljam kasalligi profilaktikasida immunitetni oshirish, tanani chiniqtirish, mavsumiy kasalliklardan saqlanish,

# JADIDLARNING MA'NAVIY



Diqqat,  
tanlov!

## QAHRAMONLIGI

### TANLOV SHARTLARI:

Tanlov uchun taqdim etilgan ijodiy ishlar – maqola, ocherk, esse va boshqa badiiy ijod namunalari 2025-yilning 10-apreldidan 2025-yilning 10-avgustigacha (*word shaklida, 14 shriftda, kirill yoki lotin alifbosida*) “Vatanparvar” birlashgan tahririyatiga yuborilishi lozim.

### MANZIL:

100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy; elektron manzil: @vatanparvargazetasi\_bot yoki (90) 968-62-08 telegram manzili.

### Quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;
- muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;
- muallifning xizmat (ish) joyi.

### Murojaat uchun telefonlar:

(55) 511-25-91; (55) 511-25-82.

Eng sara ijodiy ishlar “Vatanparvar” gazetasi sahifalarida “Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanlovi rukni ostida chop etiladi.

### G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH:

#### Tanlov g'oliblari quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:

- 1-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom;
- 2-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom;
- 3-o'rin (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom.

Rag'batlantiruvchi mukofot:

- 3 ta – bazaviy hisoblash miqdorining 8 (*sakkiz*) barobari, diplom.

Tanlov natijalari “Vatanparvar” gazetasi hamda mudofaa.uz sayti va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlariga mukofotlar 2025-yilning 30-avgustiga qadar tantanali ravishda topshiriladi.

### “Vatanparvar” birlashgan tahririyat

@Vatanparvargazetasi\_bot

“Vatanparvar” birlashgan tahririyat bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA



**VATANPARVAR**



MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya

Tahririyat kengashi:  
general-major Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxtaga olingan.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

**Navbatchi:** kapitan Bobur Elmurodov  
**Sahifalovchi:** Begali Eshonqulov  
**Musahih:** Sayyora Meliqo'ziyeva

Buyurtma: V-5927  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 33 376 nusxa  
Bosishga topshirish vaqt: 14:00  
Topshirildi: 14:30  
  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O'zbekiston” NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqsa boshlagan.

Nashri ko'satkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

“O'zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.